

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O`ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O`ZBEK TILI VA ADABIYOT O`QITISH
METODIKASI KAFEDRASI BITIRUVCHISI
ELIBOYEV SOXIBA**

**Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini 9-
sinflarda o‘rganilishi.**

Mavzusidagi Bitiruv- Malakaviy Ishi

Ilmiy rahbar f.f.n. F. Badriyev.

Samarqand-2013

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini 9- sinflarda o‘rganilishi.

Reja:

Kirish.

I.BOB. Buyuk daho Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish va “Xamsa” asarini yaratilishi, xamsachilikdagi an‘analari haqida.

1.1. Yozuvchi tarjimai holini o‘rganishga oid ayrim ilmiy-metodik fikrlar.

1.2. Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma’lumot.

1.3. “Xamsa” asarining yaratilishi va xamsachilik an‘analari haqida.

II.BOB. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganish.

2.1. Badiiy asar tahlili haqida ma’lumot.

2.2. O‘qituvchining Alisher Navoiyning “Xamsa” asari, undagi “Farhod va Shirin” dostoni haqida kirish so‘zi.

2.3. “Farhod va Shirin” dostonini syujeti, kompozitsion tuzilishi.

III.BOB. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi obrazlarga xarakteristika.

3.1. Badiiy asarni ifodali o‘qish va sharhlab o‘qishga oid metodik fikrlar.

3.2. Dostondagi Farhod va Shirin obrazlariga xarakteristika.

Xulosa.

Ilova.

Adabiyotlar ro‘yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asari barcha fanlarda bo‘lganidek, adabiyot metodikasi fanining ilmiy metodologik asosini belgilab beradi. Zotan, asarda hozirgi zamon yoshlari kelajak avlodning yashashi, istiqloлга erishish yo‘llari yaqqol belgilab berilgan. Buning isboti hazrat Alisher Navoiyga berilgan baho bo‘ldi. Kitobda buyuk dahoning insoniyat olamiga qo‘shgan xizmatlari, uning adabiyotimiz sohasida yaratgan kashfiyotlari, ayniqsa, Navoiy asarlarining yoshlarimizning barkamol bo‘lib yetishishlaridagi ahamiyati, badiiy kuchi, qimmat alohida qayd etilgan. Alisher Navoiyning badiiy ummoni nodir dur-u javohirlarga to‘la. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonidagi Chin xoqoning o‘g‘li Farhodning yoshlikdagi bilimga chanqoqligi, uning piri komili Suqrot nasihati bilan sof sevgi va ma’naviy yuksalish yo‘lidagi kurashi, mamlakat obodonchiligi yo‘lida tog‘dan ariq qazib, qaqragan yerlarga obi – hayot bag‘ishlashi, sevgilisi Shirin mamlakatini bosqinchi, xudbin Xisravdan himoya qilishi, go‘zal Shirinning sof sevgi yo‘lidagi barcha harakatlari, “Layli va Majnun” dostonidagi Qaysning – Majnunning Layliga bo‘lgan insoniy va ilohiy sevgisi, o‘z navbatida, Laylining Qays yo‘lida halok bo‘lishi, “Sab’al sayyor” dostonidagi shoh Bahrom va Diloromning sarguzashtlariga bag‘ishlangan barcha hikoyatlar komil insonning voyaga yetishida saboq va namuna vazifasini bajaradi. Binobarin, “Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki,- deydi I. Karimov,- hayotimizning barcha sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an’analimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji bilan uzviy bog‘liqdir”.¹

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Prezidentimiz Islom Karimov “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarida: “Biz farzandlarimizning barkamol

¹ Бадриев Ф., Худойбердиев А. Адабий талим ва комил инсон тарбияси.//Адабий талим ва ёшлар тарбияси.- Т. 2010,7-8- б.

ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy, axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur",- deya ta'kidlaydi.

“Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori ” asarida esa :

“Kadrlar tayyorlash

sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy – axloqiy har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi”, - deb ta'kidlagan edi.

Prezidentimiz milliy dastur haqida so'zlagan nutqida uning maqsad va vazifalarini aniq ko'rsatib: milliy dasturning maqsad va vazifalari shaxsni shakllantirishga qaratilganini, shaxs islohotlarining asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi ekanini, milliy dasturdan kuzatilgan maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi, birinchi navbatda, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning yanada yaxshilanishiga olib kelishini, jamiyatdagi yangi shaxs – komil insonlar vujudga kelishini aytadi.²

Asrlar osha omon qolib, bizga yetib kelgan milliy qadryatlarimiz, ma'naviy va ma'rifiy madaniyatimiz, ilm – ma'rifat, shuningdek, pedagogika fani mustaqillik sharofati ila yangidan rivoj topa boshladi.

Ma'lumki, har bir mustaqil davlatning istiqboli fan – texnika, ilm – maorif taraqqiyoti hamda barkamol milliy kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazish bilan bog'liqdir. Shu bois ham mustaqil davlatimiz ilm – fan hamda maorif rivojiga salohiyatli milliy kadrlar yetishtirishga jiddiy e'tibor bermoqda.³

Shaxsni barkamol bo'lib yetishishiga, eng muhimi, uning ma'naviy dunyosini boyishiga sabab bo'ladigan omillardan biri – bu badiiy adabiyotdir. Aslini olganda o'zbek milliy adabiyotimizning poydevorini qurgan, uni jahon miqyosida san'at darajasiga ko'targan buyuk daho Alisher Navoiy bo'lib, bu buyuk zotning ummonga teng asarlari, ayniqsa, jahon adabiyotidan muhtasham o'rin olgan “Xamsa” asari asrlar osha bashariyatning bebaho durdonasi, ma'naviy – ma'rifiy, axloqiy – estetik mulkiga aylandi. Ana shunday so'z san'atining durdonasi hisoblangan “Xamsa” asarini o'rganish, ayniqsa, Navoiy idealini o'quvchilarga

² Зуннунов А., Толипов Ў. Миллий кадрятлар асосида ўқувчи шахсини шакллантириш.-Т.: “Шарқ”, 2006.5- б.

³ Зуннунов А. Педагогика тарихи.-Т.: “Шарқ”, 2004.3-4- б.

yetakzish ko'p jihatdan o'qituvchining ilmiy – nazariy bilimi, dars berish san'ati, aniqrog'i, "Xamsa" asaridagi qahramonlar sarguzashti va idealini tahlil qilishga bog'liq. Bu jihatdan umumta'lim maktablari o'qituvchilari adabiyot kursi bo'yicha darslikka ega bo'lganliklari holda, Navoiydek buyuk zotning asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularni o'quvchilar ongiga yetkazishga oid adabiy – tanqidiy va metodik qo'llanmalarga ega emas, ehtiyoj sezadilar . . . Bu narsa adabiyot o'qitish metodikasi sohasida, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'rganishda ilmiy metodik, aniqrog'i, tadqiqot ishlarini olib borish va dars samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy metodik qo'llanmalarni yaratishni taqozo etadi.

Mavzumiz buyuk Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin " dostonini umumta'lim maktablarining IX sinflarida o'rganish usullariga bag'ishlanganligi sababli, shunga oid darsliklar, metodik qo'llanmalar, ilmiy axborot namunalarini o'rgangan holda malakaviy bitirish ishimizga ilg'or maktab tajribalari va shaxsiy kuzatishlarimni umumlashtirishni nazarda tutdim. Shu maqsadda, adabiyot metodikasiga oid o'tgan asrning 60-80-2000-yillar va mustaqillik davrida yaratilgan darsliklar, metodik qo'llanma va ilmiy maqolalar, axborot namunalarini o'rganish, ularni tahlil etish, munosabat bildirish nazarda tutildi. Zotan, adabiyot metodikasi fani umumta'lim maktablarida badiiy adabiyotni o'qitishning mezonini belgilaydi, dars samaradorligini oshirishning turli usullari haqida bahs yuritadi, tavsiyalar beradi, eng muhimi, o'quvchini badiiy adabiyot vositasida san'at olamiga olib kirishning usullarini belgilaydi. Ana shuning uchun ham malakaviy ishimni yozish jarayonida taniqli metodist olimlarni ilmiy tavsiyalarini o'rganish, ularni dars jarayonida qo'llash, yozishim kerak bo'lgan malakaviy bitirish ishimning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Adabiyot metodikasini o'rganish u haqida ilmiy maqola, metodik qo'llanma va darslik yaratishga, o'tgan asrning 60-80-2000-yillarida katta ishlar qilingan. V – VII sinflar uchun "Adabiyot" darsliklari, IX sinflar uchun "O'zbek adabiyoti tarixi" yaratilgan. Respublikamizda badiiy adabiyotni o'qitishga oid ilmiy metodik konferentsiyalar o'tkazilgan, pedagogik ishlar tashkil etilgan.

Bu borada metodist olimlardan professorlar : G'.Karimov, A.Zunnunov, S.Dolimov, shuningdek, dotsentlardan: Q.Ahmedov, H.Ubaydullayev, R.Usmonov, K.Jo'rayev va universitetimizning metodist olimi F.Badriyevlar tomonidan adabiyot o'qitishning ilmiy – nazariy va amaliy masalalariga oid darslik va metodik qo'llanmalar yaratilgan. Eng muhimi o'sha vaqtdagi maktablarning ahvoli va ayrim darsliklar tahlil etilgan. Bu borada taniqli metodist olim Asqar Zunnunovning fikrlari hozirgi kunda ham o'zining qimmatini yo'qotgan emas.

V – VIII sinf xrestomatiyalarida adabiy asarning badiiy qimmati va tili haqida, umumiy qoida tusiga kirib qolgan tartib bo'yicha, asosiy obrazlarga qisqacha xarakteristika berilgach, kompazitsiyasi mohirona qurilgan, badiiy vositalardan yozuvchi unumli foydalangan, tili ravon kabi umumiy gaplar bilan chegaralanib, ular xarakterli faktlar orqali namoyish qilinadi, natijada o'quvchilarda barcha asarlar bir xilda yozilar ekan, degan tushuncha tug'iladi. Darslikda asarning badiiy qimmati asosiy qismlardan uzib olingan holda tahlil qilinadi. Unda obrazlardagi ziddiyatni ochish o'rniga, ularning ijtimoiy qiyofasi, asarda peyzaj tasviri, tili haqida gapiriladi. Ayrim darsliklardagi yana muhim bir kamchilik shundaki, ularda klassik adabiyotdan olingan namunalar mazmuni yetarli, to'liq yoritilmagan. Masalan, VII sinf darsligida Alisher Navoiyning :

To reja chekmas yeriga bog'bon,

Bog' hamon zebda changal hamon.

baytiga shunday sharh beriladi: “ Daraxtlar tartibsiz o'tqazilgan bog' changalzordan farq qilmaydi”. Aslida bu hikmatli so'zning sharhi shunday bo'lishi kerak: “Bog'bon yeriga reja bilan daraxt o'tqazmas ekan, bog'i ko'rinishda changalzordan farq qilmaydi ”. Bizning nazarimizda Alisher Navoiy bog'bonning, binobarin, tajribachining rejali ishqilishini, bog'ning go'zal bo'lishini o'ylab ish qilishini aytadi.

V-VIII sinf darsliklarida adabiy tekstlar yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar ko'proq asar mazmunini hikoya qilish, yodlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmasini o'stirishga, asarning badiiyligini chuqur his etishga yetarli yordam bermaydi. Avtorlar savol va topshiriqlarni

berishda o'quvchilarning o'qish mashg'ulotlari bilan ortiqcha band bo'lib qolishlariga yetarli e'tibor bermaganlar.

IX-X sinf darsliklaridagi eng muhim kamchilik yozuvchining badiiy mahorati, o'ziga xos uslubi, murakkab nazariy tushunchalarning yetarli yoritilmaganligi, obrazlarning badiiy vositalar orqali yetarli ochilmaganligida ko'rinadi. "O'zbek adabiyoti tarixi" (1967-yil) darsligida Furqatning mashhur "Saydining qo'yaber, sayyod" musaddasining g'oyaviy mazmuni yoritilgani holda, badiiy xususiyati ochilmagan, shoir qo'llagan istiora, o'xshatish va sifatlashlar aniq misollarda, obrazlarga bog'liq holda yoritilmagan.

Darsliklarda, ayniqsa, adabiyot darsliklarining tili sodda, yorqin, aniq, qisqa va ta'sirchan bo'lishi kerak. Mavjud darslik mualliflari bu masalaga ma'lum darajada e'tibor bergan bo'lsalar ham, darsliklarda o'quvchilar uchun tushunish qiyin bo'lgan jumlar, bayonlar bor. Ularda obzor materiallari ko'p, tarixiy faktlar, joylar va kishilar nomi juda ko'pki, ularni esda qoldirish qiyin. Yuqori sinf darsliklarida obzor materiallarining ko'pligi darsda turli metod va usullarni qo'llashga imkoniyat bermaydi, sinfda esa ko'proq ma'ruza usuli hukmronlik qiladi.⁴

Yuqorida tilga olingan metodik qo'llanmalarining ilmiy-metodik va amaliy ahamiyatga ega ekanini nazarda tutgan prof. A. Zunnunov maktabda adabiyotdan, sinfdan tashqari ishlarning nihoyatda samaradorligini qayd qilgan holda F.Badriyevning "Yuqori sinflarda adabiyotdan sinfdan tashqari ishlar" nomli metodik qo'llanmasi haqida quyidagi metodik fikrlarni bayon etadi. Qo'llanmada muallif sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishda kitobxonlar qiziqishini o'rganish muhim rol o'ynashini va bu ishni amalga oshirishning forma va metodlarni yoritdi. F.Badriyevning ilmiy – metodik, amaliy – praktik xususiyatga ega bo'lgan ushbu qo'llanmasi maktabda sinfdan tashqari o'qishni uyushtirish va rivojlantirishda o'qituvchilarga katta yordam beradi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy barcha asarlarida komil inson obrazini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va bunga to'liq erishgan. Adibning

⁴ Зуннунов А. Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерклар.- Т.: "Ўқитувчи", 1980, 127-131- б.

mukammal inson haqidagi orzu – o‘ylari, ayniqsa, “Xamsa”ning ikkinchi dostonidagi Farhod timsolida o‘z ifodasini topgan. Bu haqda taniqli adabiyotshunos olim, prof. G‘.Karimov quyidagilarni bayon etadi: “Ulug‘ san’atkor va donishmand mutafakkir Navoiy inson va uning ichki his – tuyg‘ulari to‘g‘risida so‘zlaydimi, koinot kengliklaridan bahs ochadimi yoki bo‘lmasa kichik lirik she‘rlarida muhabbat qo‘shig‘ini to‘qiydimi, lirik, epik asarlarida tiyran falsafiy tushunchalarni bayon etadimi — hamma o‘rinda, u yoki bu munosabat bilan gul va gulshandan bahs ochadi...

Navoiy yaratgan bog‘ning kishini hayratga soluvchi gulshani bu uning “Farhod va Shirin” dostonidir. Adib ushbu asarni yozishga kirishar ekan, bu ko‘hna sharq afsonasini yangi mazmun bilan boyitib, unga yangicha ruh va bo‘yoq berishga jazm qilganini aytadi va shunday yozadi:

Oni nazm etki, tarhing toza bo‘lg‘ay,

Ulusqa mayl beandoza bo‘lg‘ay.

Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq,

Muqarrar aylamak sandin na loyiq.”

Navoiy ushbu dostonida inson erki, muhabbati mehnati, adolat haqidagi qarashlarini kuylab, o‘zigacha mavjud ilg‘or adabiyotga xos insonparvarlik mavzularini yangi sharoitda boyitgan. Asarda insonparvarlik, mamalakat obodonligi, xalqlar do‘stligi g‘oyalari ilgari surilgan.

Prof. A.Hayitmetov: “Navoiy Farhod obrazi ustida ishlar ekan, o‘z idealiga real hayotda har qadamda uchrab turuvchi kishi obrazini emas, balki yetishish, hayotda uchratish qiyin bo‘lgan orzudagi, fantaziyadagi ideal kishi obrazini yaratishni maqsad qilib qo‘ygan...” – deb yozadi. Buni Farhodning tug‘ilishidanoq uning qalbida ishq dardi joylashganini, ko‘zida muhabbat ashki, damida oh dudi, jamolida “vafo to‘g‘rosi” borligini tasvirlashidanoq payqash mumkin.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotni misli ko‘rilmagan yangi bosqichiga ko‘tardi. Adabiyot har qachongidan ko‘ra ham inson qalbi, ruhi va tafakkurining jonli ifodasiga aylandi. She‘riyat millat va Vatan ravnaqi uchun haq so‘z yalovbardori ekanligiga xalqda kuchli ishonch uyg‘ondi. Shu bois qisqa

muddatlarda Navoiy ijodiyoti ulug' bir ma'rifat maktabi darajasiga ko'tarildi. Bu maqom bugun ham pastlagani yo'q. Xususan, mustaqillikdan so'ng Navoiy shaxsi va ijodiyotiga munosabat tubda yangilanganligini adabiyotshunos olim I.Haqqulov o'zining ilmiy xulosalarida ta'kidlagan.⁵

Umuman olganda, o'tgan asrning 60 – 80 va 2000- yillarida yaratilgan darslik va metodik qo'llanmalarda adabiyot darslarini tashkil etishning samarali usullariga oid ilmiy –nazariy va metodik xarakterga ega bo'lganligi bilan katta ahamiyatga ega ekanligini qayd qilish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan darslik va metodik qo'llanmalar mustaqillik davrida adabiyot darsliklarini yaratish, eng muhimi badiiy adabiyot vositasida yoshlarning ma'naviy – estetik olamini boyitishga ma'lum darajada xizmat qilishini ta'kidlash lozim bo'ladi.

Mamlakatimizning mustaqilligi davrida umumta'lim maktablari, kollej, litseylar uchun adabiyot darsliklarning yangi avlodi yuzaga keldi. Bu darsliklar albatta mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda mumtoz adabiyotimizning va hozirgi o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari kiritilgan. Darsliklar albatta, ilmiy didaktik tomondan o'quvchilarning yoshi, bilimi va ma'naviy olamini boyitishga qaratilgan. Shu bilan birga darsliklarda yozuvchi ijodiga xos xususiyatlarni aniqlash, uning poetik mahoratini belgilash, falsafiy – estetik qarashlarini yoritishda eng muhimi, ular ijodiga xos xususiyatlarni ilmiy jihatdan baholashda ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanadiki, bu haqda biz malakaviy bitirish ishimizning keyingi boblarida shaxsiy fikrlarimizni bayon etamiz. Mamlakatimizning mustaqilligi davrida adabiyot fanidan yangi darsliklar bilan birga metodik qo'llanmalar ham yuzaga keldi. Bu darslik va qo'llanmalarda adabiyot fanini o'qitishning ilmiy-didaktik va nazariy hamda metodika bilan bog'liq bo'lgan fikrlar, shuningdek, dars samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar keltirilgan, eng muhimi darslik va qo'llanmalarda o'sayotgan yosh avlodga adabiyot vositasida bilim berishning mohiyati, ayniqsa, komil inson ma'naviyatini boyitishdagi o'rniga oid mavzular tavsiya etilgan. Metodist olim B.To'xliyevning "Adabiyot o'qitish metodikasi"

⁵ Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижоди (альбом).-Т. 2010. 46 - б.

(2010) qo'llanmasida "Adabiyot o'qitish metodikasi" faning maqsadi, ta'lim bosqichlarida adabiyot kursining mazmuni, badiiy asarni tahlil qilish, epik, lirik, dramatik asarlarni o'rganish usullari, yozuvchi tarjimai holini o'rganish, adabiy – nazariy tushunchalarni o'rganishga oid metodik fikrlar berilgan.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Davlat ta'lim standartlari ta'lim mazmunini, shakllar, vositalar, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standartlari o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlar yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv rejasi davlat ta'lim standartlarining tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sohalarini me'yorlashni hamda maktabning moliyaviy taminotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladiga ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.⁶

Metodist olim Q.Yo'ldoshevning "Adabiy saboqlar" (T,2004) qo'llanmasi umumta'lim maktablarida badiiy adabiyotni o'qitishning muhim muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari, Lutfiy, Nodira g'azallari, Oybekning "Navoiy" romanini o'rganishning usullariga oid nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar adabiyot o'qituvchilarining faoliyatlari uchun zaruriy dastur hisoblanadi. SamDU dotsentlari F.Badriyev, A.Xudoyberdiyevlar tomonidan 1198-2003-yillarda yaratilgan "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmasida umumta'lim maktablarida badiiy adabiyotni o'qitishning nazariy va amaliy masalalariga oid fikrlar, metodika faning tarixiy bosqichlar, boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish, badiiy asar tahlili, badiiy asar

⁶ Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т. 2010, 43-44-б.

janrini o'rganish, yozuvchi tarjimai holini o'rganishga oid ma'lumotlar keltirilgan; ilg'or maktab tajribalari umumlashtirilgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, mamlakatimizning mustaqillik davri va undan keyin yaratilgan darslik va metodik qo'llanmalarda umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning samarali usullari bilan bog'liq bo'lgan ilmiy fikrlar bayon etilgani holda shuningdek, mumtoz adabiyotimiz va hozirgi davr adiblari ijodiga oid eng yaxshi namunalarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan fikrlar keltirilgan holda, daho ijodkor Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi "Farhod va Shirin" dostonini monografik tarzda o'rganishning usullari bilan bog'liq bo'lgan nazariy fikrlar, dars namunalari kam uchraydi. Bu esa o'z navbatida buyuk shoir ijodini o'rganishda o'qituvchilarga qiyinchilik tug'diradi. Shu maqsadda mazkur malakaviy bitirish ishimizda daho ijodkor Alisher Navoiyning jahonshumul "Xamsa" asarini yaratishdagi poetik mahorati, asarning jahonshumul ahamiyati, xususan, umumta'lim maktablarining IX sinfida "Farhod va Shirin" dostonini o'rganishning ijobiy usullari haqida ma'lumot berish, dars namunalari keltirish, bu asarning mamlakatimizning mustaqilligi sharoitida komil insonni shakllantirishdagi ahamiyati haqida shaxsiy fikrlarni bayon etishni maqsad qilib oldim.

Shu maqsadda quyidagilarni hal etish nazarda tutiladi:

1. Kirish: buyuk daho Alisher Navoiy "Xamsa"sining ahamiyati haqida fikrlar.
2. Mavzuga oid ilmiy –metodik adabiyotlar tahlili.
3. Yozuvchi tarjimai holini o'rganishga oid metodik fikrlar.
4. Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekovlar tomonidan yaratilgan darslik (Alisher Navoiy bo'limi tahlili).
5. "Farhod va Shirin" dostonini o'rganishga oid nazariy fikrlar, metodik tavsifiyalar, dars namunalari keltirish.
6. Xulosa va tavsifiyalar.
7. Ilova.
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini berish ko'zda tutiladi.

I BOB. Buyuk daho Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish va "Xamsa" asarini yaratilishi, xamsachilikdagi an'analar haqida.

Maqsad: Buyuk Alisher Navoiyning hayoti va adabiy merosi haqida ma'lumot, "Xamsa" asarini yuzaga kelishi va xamsachilik an'analari haqida.

Darsning metodi: O'qituvchining ma'ruzasi, suhbat, ifodali o'qish, badiiy tahlil;

Darsning ilmiyligi: Adabiyotshunos olimlarning Alisher Navoiyning ijodi va "Xamsa" asari haqidagi ilmiy fikrlari yuzasidan ma'lumot berish;

Ko'rgazmalilik: Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga oid miniaturalar, hamda rasmlar namoyishi.

Darsning borishi: O'quvchilar sizlar quyi sinflarda buyuk Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid ma'lumotga ega bo'lgansizlar. Kim aytadi, Navoiy bobomiz qachon va qayerda dunyoga kelgan? Shoir qanday asarlar yaratgan? Navoiyning "Xamsa" asari qaysi dostonlarni o'z ichiga oladi?

Birinchi o'quvchi: Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo hukumronligi davrida Hirotida tug'ildi. Uning otasi G'iyosiddin Kichkina temuriylar saroyining amaldorlaridan bo'lgan.

Ikkinchi o'quvchi: Shoirning ilk devoni "Badoye ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi") 1472-1476-yillarda, 1485-1486-yillarda ikkinchi "Navodir un-nihoya" asarlari yaratildi. Shuningdek, "Devoni Foni" asarini hamda dunyoga mashhur "Xamsa" asarini yaratgan.

Uchinchi o'quvchi: Buyuk Alisher Navoiyning "Xamsa" asari besh dostonidan iborat bo'lib, ular: "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarini o'z ichiga oladi.

Endi Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini boshlashdan oldin, uning jahon adabiyotiga molik bo'lgan asarlari haqida shoir, olim, faylasuf, musiqashunos, tilshunos olim, aniqrog'i, qomusiy olim va o'zining poetik mahorati bilan jahonga tanilgan san'atkor Alisher Navoiy haqida qisqacha gapirishdan oldin, buyuk shoirning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, Navoiy ijodining tarixiy ahamiyati va iymiy- poetik san'ati haqida qisqacha gapirish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchining bu fikrlari Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy olami haqida ma'lumot berishdan oldingi kirish mashg'ulotlari hisoblanadi. Zotan, adabiyot darslarida kirish mashg'ulotlari o'rganilayotgan mavzuni chuqur o'zlashtirish, ayniqsa, ijodkor haqida ilmiy-estetik tushunchalarga ega bo'lishning vositasi hisoblanadi. Bu haqida metodist olim prof. Boqijon To'xliyevning badiiy asar tahlili jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan "Kirish mashg'ulotlari" haqidagi ilmiy fikrlari adabiyot fanini o'qitish, uning estetik olamini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi: badiiy asar matni ustida ishlashda kirish mashg'ulotlarining o'rni, ayniqsa, kattadir. Ta'limning turli bosqichlarida o'rganiladigan adabiyot kursining asosiy mazmun va mohiyatini badiiy asarlarni o'rganish tashkil etadi. Bu jarayon bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Xususan, kirish mashg'ulotlari, badiiy matnni tahlil qilish, yakunlovchi mashg'ulotlar shular sirasiga mansubdir.

Kirish mashg'ulotlari o'quvchilar e'tiborini asar muallifining alohida xislatlari yoki shu asarga xos bo'lgan eng muhim qirralari, asosiy badiiy-estetik jihatlarini anglashga, his etishga imkon berishi bilan e'tiborlidir. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, kirish mashg'ulotlari o'quvchilarni badiiyatning navbatdagi yangi olamiga olib kirishdagi o'ziga xos yo'ldir.

Har bir yangi asar – yangi olam. Ulardagi hodisalarning o'zigaxos tasviri va talqini beriladi. Demakki, mana shu asarlarda tasvirlangan qahramonlar – obrazlar ham bir – birlarini takrorlamaydi. Ularning har birida shu olamga xos bo'lgan odamlardagi takrorlanmaslik xislatlari mujassamlashgan bo'ladi.

Kirish mashg'ulotlari o'quvchilar o'rganilayotgan asarni to'la va hissiy qabul qilishlari uchun munosib zamin yaratishi bilan ajralib turadi. Natijada, ularda asarni o'rganish uchun ishtiyoq, qiziqish shakllanadi, paydo bo'ladi. Kirish mashg'ulotlarining shakl va mazmuni xilma-xil bo'lishi mumkin. Ba'zan u bir-ikki muhim detallar tasviri va bayonidan iborat bo'lsa, ba'zan muayyan tarixiy davr va sharoit, yozuvchining tarjimai holidagi eng muhim qirqlar, muayyan asar atofidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va badiiy-estetik hodisalar tahlilidan iborat bo'lishi mumkin.

Ayrim yangi, o'quvchilar uchun ma'nosi notanish bo'lgan so'zlar izohi ham kirish mashg'ulotlarining mazmunini tashkil eta oladi. Demak, kirish mashg'ulotlari mazmunini qat'iy tarzda chegaralab qo'yish mumkin emas. Bu vaqt nuqtai nazardan ham shunday xususiyatga ega. Ba'zan kirish mashg'ulotlari darsning bir qismini, deylik 3-5 minutdan 15-20 minutgacha bo'lgan qismini qamrab olsa, ayrim hollarda butun boshli bir dars faqat kirish mashg'ulotlariga ajratilishi mumkin. Bu o'quvchilarning yosh xususiytlari, adabiy tayyorgarlik darajalariga hamda o'rganilayotgan asar yoki mavzuning mohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi umumbashariyat xazinasiga o'zining umrboqiy lirik she'rlari kitobxonni hayratda qoldiruvchi dostonlari, ayniqsa, inson ruhiyatiga, uning ma'naviy olamiga ijodiy ta'sir etuvchi, aniqrog'i, o'zida komil insonga xos xislata ega bo'lgan qahramonlarning sarguzashtlari bilan dunyoga tanilgan buyuk daho Alisher Navoiyning hayoti, uning madrasada tahsil olagan davri adabiyotga bo'lgan ixlosi, ayniqsa, buyuk ijodkor Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini yod olishi, ustozlari Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy va fors-tojik adabiyotining daholaridan Abdurahmon Jomiy bilan do'stlashganligi, ota-bola tutunganligi, eng muhimi shoirning Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy tomonidan yaratilgan "Xamsa" asarini chuqur tahlil etganligi va ustoz Abdurahmon Jomiyning qistovi bilan tamoman xamsachilikda yangi davr, yangi uslub, yangi g'oya eng muhimi boshqalarda uchramaydigan poetik mahorat yaratganligi, Alisher Navoiyning "Xamsa" asari dunyo san'atida yangi davrni boshlab berganligi haqida ma'lumot beradi.

1.1. Yozuvchi tarjimai holini o'rganishga oid ayrim ilmiy metodik fikrlar.

Keyingi yillarda yozuvchilar tarjimai holini o'rganishda metodist olimlar o'rtasida turli xil fikrlar mavjud: kimdir darsliklarda yozuvchilarning tarjimai holini keng yoritish kerak desa, kimdir hatto "shart emas" degan fikrni oldinga suradi. Aslida ijodkorlarning tarjimai holini o'rganishga kengroq o'rin berilishi uning ijodini to'laroq tushinib olishdan tashqari yozuvchining estetik olami, falsafiy qarashlari, hayotga munosabati eng muhimi, ijodiy metodi va poetik mahoratini o'rganish, tushunib olish imkonini beradi.

Adabiyot o'qitish metodikasi darsligi va qo'llanmalarda yozuvchi — ijodkorning tarjimai holini o'rganishga oid qimmatli fikrlar bayon etilgan. Ayniqsa, taniqli metodist olim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Asqar Zunnunovning “Maktada adabiyot o'qitish metodikasi” (Toshkent ,O'qituvchi nashriyoti, 1991) darsligi, shuningdek, metodist olim Boqijon To'xliyevning “Adabiyot o'qitish metodikasi” (Toshkent ,2010) qo'llanmasi, Sam DU dotsentlari F.Badriyev, A.Xudoyberdiyevlarning “Adabiyot o'qitish metodikasi” (Samarqand 2003) qo'llanmalarida yozuvchi tarjimai holini o'rganishga oid ilmiy-metodik fikrlar talqin etilgan. Chunonchi, prof.A.Zunnunov bu haqida quyidagilarni yozadi:

“Yuqori sinflarda yozuvchining tarjimai holi ijodiy faoliyati bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bunday mavzuni o'rganishda o'quvchilarning diqqat-e'tibori yozuvchining adabiyot rivojida, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rniga, ijodiy komolotining asosiy bosqichlariga jalb etiladi. Bu masalalar bo'yicha ma'lumotni o'quvchilar, asosan, darsda yozuvchining hayoti va ijodi haqida qilinadigan ma'ruzasida oladilar, ayrim asarlarini o'qish va o'rganish bilan u haqida yanada kengroq tushunchaga ega bo'ladilar.

Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda uning boshqa yozuvchilar bilan adabiy aloqasiga, ular ijodiga bo'lgan munosabatiga ahamiyat beriladi. Chunki har bir yozuvchi faqat o'z zamondoshlari bilan cheklanmasda, o'zidan oldin yashab, ijod etgan yozuvchilarning adabiy merosini o'rganadi, ularning eng yaxshi traditsiyalarini ijodiy davom ettiradi. Shu ma'noda u o'tmish odatlar ijodining davomchisi, kelajak ijodkorlarning ustози, yosh avlodning tarbiyachisi hisoblanadi.

Yuqori sinflarda esa, yozuvchining ijodiy yo'li to'la o'rganiladi, programma asosida bir yoki bir necha asari atroflicha tahlil qilinadi. Chunonchi, VII sinfda Alisher Navoiyning g'azal, ruboiy va tuyuqlardan ayrimlari va “Farhod va Shirin” dostoni atroflicha tahlil qilib o'rganilgan holda, boshqa dostonlari haqida umumiy ma'lumot beriladi”.⁷

⁷ Зунуннов А., Эсонов Ж. Мактабда ўқитиш методикаси.- Т.: “ Ўқитувчи”, 1985 , 95-97-б.

Ijodkor tarjimai holini o'rganishning nazariy-ilmiy masalasi prof. Boqijon To'xliyevning yuqorida tilga olingan qo'llanmasida aniq misollar asosida talqin etilgan.

Badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham ayrim ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar ko'pincha, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to'g'ri belgilashda yordam beradi. Mazkur ma'lumotlar qayerlarda olinadi?

Ularni adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma yozma holida yetib kelgan manbalardan olish mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir.

Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida adibning o'z fikrlaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Masalan, Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodini o'rganishda bevosita uning o'z asari — “Qutadg'u bilig”ga murojaat qilish o'rinli bo'ladi. Buning asosiy sabablaridan biri, adib haqida boshqa ilmiy, tarixiy manbalarda tegishli axborotlarning saqlanib qolinmagani yoki hozircha topilmay turishidir.

Kitob muqaddimasida adib o'zining tug'ilgan yurtini eslatib o'tadi:

Munuqi turug'laq Quz O'rdu eli,

Tub-asli, nasabdin yurumish tili.

Buning tug'ilgan eli Quz O'rdudir,

Tub-asli, nasl-nasabdan tili so'z ochdi.

Quz O'rdu turkiylar istiqomat qiladigan qadimiy shaharlardan biri.

U Bolosag'un nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Bu shahar XI asrda yaratilgan yana bir muhtasham obida—Mahmud Kog'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asarida bir necha marta tilga olinadi. Jumladan, bu shaharning arg'un lahjasida Quz ulus, o'g'uz lahjasida esa Quz O'rdu deb yuritilishini Mahmud Qoshg'ariy maxsus qayd etadi. Mana bunday muallif izohlari, eslatmalari badiiy ijodning o'ziga xos xususiyatlarni tushunish uchun ham, adibning shaxsiyatiga aloqador bo'lgan

ma'lumotlarni oydinlashtirish uchun ham, o'rni bilan esa muayyan bir adabiy hodisaning ijtimoiy-estetik ahamiyatini tasavvur etish uchun ham favqulodda katta yordam berish mumkin bo'ladi.

Yozuvchi, san'atkor oddiy kishilardan shu bilan ham farq etadiki, uning asarlarida hayot hodisalari, faktlari faqat qayt etilibgina qolmaydi. Har gal biror hodisa, fakt haqidagi hikoya – yozuvchining, san'atkorning shu narsaga, hodisaga, pirovardida kishilarga ijobiy yoki salbiy munosabati bilan sug'orilgan bo'ladi. Bu "munosabat omili" shunchalik muhimki, faqat ugina bizga hodisa haqida haqqoniy, mukammal, yorqin tasavvur bera oladi. San'atkorning ijobiy munosabati, mehri va muhabbat bilan qizdirilgan hayotiy fakt, xuddi endigina cho'g'dan olingan temirdek, o'z rangi, harorati, fazilatlarini bilan hayratga solishi va tahsinimizga sazovor bo'lishi mumkin.⁸

Shuni ham qayd qilish kerakki, bugungi kundagi adabiyot o'qitish masalasi sho'rolar davrida yaratilgan darslik va ilmiy manbalar tubdan farq qiladi. Bu farq darslikning didaktik talablardan tashqari ilmiy-ma'naviy masalalarini o'z ichiga olishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan, buyuk Alisher Navoiy ijodi, uning ummon asarlari, ayniqsa, "Xamsa" asarini o'rganishda adabiyotshunos olimlardan akademiklar: A.Qayumov, B.Valixojayev, I.Sultonov, A.Rustamov; professorlar: A.Hayitmetov, H.Sulaymonov, M.Muhiddinov, S.G'aniyeva, N.Komilov, R.Vohidov va boshqa adabiyotshunos olimlarning monografiyasi hamda ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanish umumta'lim maktablari o'quvchilarini adabiyot olamiga olib kirishdan tashqari, ularda ilmiy tushunchalarni yuzaga kelishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida maktab partasida adabiyot haqida bilim olayotgan talabalarni, o'quvchilarni ijobiy qobiliyatlarini o'stirish eng muhimi, san'at olamiga olib kiradi.

1.2.Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot. Alisher Navoiy hijriy yil hisobi bilan "o'n yettinchi ramazon oyi sana 844-tovuq yili" (milodiy hisob bilan 9-fevral 1441-yil) da tug'ilgan. Uning tavallud topgan joyi Bog'i Davlatxon deb atalib, Xuroson davlatining yirik shahri Hirot atrofida edi.

⁸ Тўхлиев Б.Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.2010,111-115-б.

Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad "Kichina Bahodir", "Kichkina baxshi" laqablari bilan mashhur edi. U Hirotning Chig'atoy ulusidan bo'lib, temuriylar saroyida e'tiborli shaxslardan, "o'z davrining mashhurlaridan va Chig'atoy elining qahramonlaridan edi". U "bisyor saodatmand va nek niyatli inson bo'lib, tabiatida juda katta odamiylik xususiyati mavjud edi". Alisherning onasi Kobulning amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizi bo'lgan.

Alisherning oilada nechanchi farzand ekanligi aniq emas. Har holda uning o'zi akasi ham bo'lgani haqida xabar beradi. Darveshali ismli ukasi bo'lgani esa ma'lum.

Alisherning bolaligidanoq zehni o'tkirligi, ziyrakligi, xushfahmligi bilan o'z tengdoshlari ichida ajralib turar edi Uning tarbiyasida muhitning, ota va ona, qarindosh-urug'larning roli katta bo'ldi.

Xususan, G'iyosiddin o'z o'g'li tarbiyasiga alohida ahamiyat bergan. Bu haqda Davlatshoh: "U o'z farzandini turli fazilatlar bilan bezash uchun oily himmatining borini sarf qildi va u buzrugvorning harakati bekor ketmadi, buning natijasida uning o'g'li izzat va kattalik taxtiga o'tirdi ...", - deb yozadi.

Alisherda uch-to'rt yoshga kirgandayoq she'r eshitishga, she'r o'qish va yodlashga qiziqish paydo bo'la boshlagan. U keyinroq bu vaqtlarni shunday eslaydi: "... uch yosh bila to'rt yoshning orasida erdim, azizlar o'qumoq taklifi qilib ba'zi hayrat izhor qilurlar erdi ...". Azizlarni hayratga solgan bayt Amir Qosim Anvorning Alisher yod o'qib bergan quyidagi matlai edi:

Rindemu oshiqemu chahon so'zu choma chok,

Bo davlati g'ami tu zi fikri chahon chi bok.

Alisherning bolaligidan poeziyaga bunchalik muhabbat qo'yganligining yana bir muhim boisi — u o'sib, tarbiyalangan oila a'zolari adabiyotga, she'riyatga juda qiziqqan kishilar bo'lganligidir. Alisher kamol topayotgan xonadonda she'riyat muhlislari tez-tez yig'ilib turar va she'rxonliklar, g'azalxonliklar bo'lar edi.

O'sha davr odatiga ko'ra hamda yosh Alisherning kitobga havasi kuchliligini nazarda tutib, uni to'rt yoshdan sal o'tganda maktabga beradilar. Alisher maktabda bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga o'qiydi va tarbiyalaydi.

Xondamirning yozganidek, Alisher "... oz vaqt ichida tengdosh va sheriklaridan ilgarilab ketadi. Nozik tab'ining soflik va sog'lomlik ovozi olamga yoyiladi va muborak fikrining dalilligi haqida so'zlar xalq orasida og'izdan – og'izga ko'chib yuradi".

Shohruhning o'limi (1447) temuriy shahzodalar o'rtasidagi o'zaro kurashlarga yo'l ochadi. Xuroson va uning markazi Hirot tartibsizliklar va qirg'inlar o'chog'iga aylanadi. Xalq bu "ro'zgor havodisi fitnasi" bardosh berolmay, shaharni tashlab keta boshlaydi. Bular ichida G'iyosiddin Kichkina oilasi ham bo'lib, ularning karvoni Iroq tomon yo'l oladi. Taft qishlog'iga kelganda, ular dam olish uchun to'xtaydilar va yosh Alisher tasodifan o'z davrining yirik tarixchisi, mashhur "Zafarnoma" asarining muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi va o'zining ziyrakligi, berilgan savollarga biyron – biyron javob berishi bilan keksa olim diqqatini o'ziga tortadi.

Alisherning oilasi besh yillik darbadarlikdan so'ng "vatan muhabbati" talabiga muvofiq, Yazd cho'li orqali Xurosonga qarab yo'lga chiqadi. Xondamir hikoya qilishicha, yo'lda shunday bir hodisa yuz beradi. Bu vaqtda hali yosh bola bo'lgan Alisherni yo'l charchog'i va uyqu yengib, ot ustidan yerga qulab, tushib qoladi. Ertalab quyosh chiqqanida u uyqudan uyg'onib qarasa, poyonsiz sahroda bir o'zi oti bilan qolibdi. U darrov Xuroson yo'lini topib ilgarilab ketadi va omon – eson ota-onasi yoniga boradi.

"Lison ut-tayr" dostonida shoir o'zining o'quvchilik yillarini tasvirlar ekan, Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini, ayniqsa, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini berilib o'qiganini ta'kidlaydi.

"Mantiq ut-tayr" asari chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, shoir o'zining so'fiyona dunyoqarashini qushlarning o'zaro suhbat va sayohatlari tasviri orqali g'oyat sodda va tasavvufga xos majoziy usulda ifoda etgan edi. Asar yosh bola tasavvurini chalg'itib yuboradi, u o'zini hamma narsadan chetga tortib, yolg'izlikni yoqtiradigan bo'lib qoladi:

Kim dedim: uzlat eshigin ochqomen,

Dahri bema'ni elidin qochqomen.

Bu voqeadan xabardor bo‘lib qolgan Alisherning ota-onasi kitobining o‘g‘illariga salbiy ta’sirini ko‘rib tahlikaga tushadilar va kitobni yashirib, uning nomini ham atamaslikni buyuradilar:

Lek chun yodimda erdi ul kalom,
Yoshurun takror etar erdim mudom.
Ondin o‘zga so‘zga maylim oz edi,
Qush tili birla ko‘ngul hamroz edi.

Alisherning bu vaqtda 10-11 yoshlarda ekanini ko‘zda tutsak, 4-5 ming misradan iborat katta bir asarni yod olishi uning o‘tkir qobilyatini ko‘rsatuvchi favqulodda bir hodisa edi.

Shoir birinchi tartib bergan devoni “Badoe ul-bidoya”, keyinroq tuzgan “Xazoyin ul-maoni” devoniga yozgan debochalarida va “Munshoat”ga kirgan xatlaridan birida kichik yoshda o‘zining “she’ning parishon savdosiga giriftor” bo‘lganini va “tufuliyat zamonida” ko‘nglining “nazmning parokanda vasvosig‘a mashg‘ul va sheftavor” bo‘lganini ta’kidlab, “sig‘ari sinda” aytilgan ab’yotlari haqida fikr yuritadi va “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga “yetti-sakkiz yoshtin yigirma yoshqacha” bitilgan g‘azallari to‘planganini bildiridi.

Xondamirning xabar berishiga ko‘ra, Alisher Navoiy yigitlik yillaridayoq, Lutfiyning yuqori bahosi va tahsiniga sazovor bo‘lgan.

Orazin yopqoch, ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh, —
Matlai bilan boshlanadigan g‘azali shu davr, ya’ni o‘n besh, o‘n olti yoshlaridagi shoir ijodining mahsuli bo‘lib, u Xondamirning yozishiga qaraganda, Alisherning “yoshlari endigina to‘lib, yigitlik davri boshlangan” paytlarida yaratilgan.⁹

Alisher Navoiy 1464-yilda Hirotga qaytadi. Shoir otasidan qolgan meros bilan yashashga, adabiy va madaniy markazlardan biri hisoblangan ona shahrida ijodiy ish bilan shug‘ullanishga umid bog‘laydi. Hirotga kelgan dastlabki kunlaridayoq Abdurahmon Jomiy bilan shaxsan uchrashib, u bilan yaqindan tanishish Alisher Navoiy uchun bir umrga katta ahamiyat kasb etib qoldi. Navoiyshunoslikda bu

⁹ Ўзбек адабиёти тарихи. –Т. 1978, 40-46-бет.

uchrashuv haqida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim navoiyshunos olimlar Husayn Boyqaro davrida Hirot madaniy markaz bo‘lib, ko‘zga ko‘ringan olim va fozillar shu shaharga to‘plangan ekan, bu ikki daho uchrashuvi ham shu vaqtlarga to‘g‘ri kelsa kerak, degan fikrni bildiradilar.

Alisherning tahsili uchun Samarqandni tanlashi bejiz emas edi. Samarqand Hirotidan keyin ikkinchi ilmiy-madaniy markaz sifatida Ulug‘bek davrida olim va shoirlar, maktab va madrasalari bilan shuhrat qozongan edi. Bu yerga ilm o‘rganish uchun mamlakatning har chekkalaridan tolibi ilmlar kelib turar edi.

Alisher Navoiy Samarqandda yashagan dastlabki kunlarida faqirona hayot kechirdi. U moddiy qiyinchilikda yashasa-da, Samarqand madrasalariga qatnadi, ilm-fan, adabiyot va san‘at ahli bilan do‘stlashdi, ular orasida tez orada e‘tiborli kishilarga aylandi. She‘rlari Xurosonda shuhrat tutgan Alisher Navoiy ko‘p o‘tmay, asli Xurosonlik bo‘lgan Ahmad Hojibekning diqqatini o‘ziga tortadi. Ahmad Hojibek Samarqandda katta obro‘ga ega bo‘lib, Ulug‘bekning madaniyat sohasidagi an‘anasini ma‘lum darajada davom ettirgan, olim va fozillarni qadrlab, madrasa va maktablar qurilishiga ahamiyat bergan, ilm ahliga homiylik qilgan. Ahmad Hojibek Alisherni ham o‘z homiysiga olib, unga ilm olish va yashash uchun sharoit yaratib beradi, moddiy jihatdan yordam ko‘rsatib turadi.

Bu davrda Samarqandda mashhur olim, yirik qonunshunos va arabshunos Xoja Fayzulloh Abdullays yashar edi. Alisher Navoiy shu olimning madrasasida tahsil ko‘rib, “fiqh” ilmidan dars oladi, uning xonaqosi hujralaridan birida yashaydi. Alisher Navoiyning Samarqanddagi hayoti g‘oyat mazmunli bo‘ldi. Shoir bilan birga Samarqandda “muammoda Samarqand ahli ani Mavlono Sharafiddin Yazdiy muqobalasida mazkur” qiladigan Mavlono Uloiy Shoshiy, Ulug‘bek Mirzo madrasasining mudarrisi Xoja Xurd, Ulug‘bek Mirzo bila hamsabaq va musohib bo‘lgan Mavlono Muhammad Olim, har kuni besh yuz baytni osonlik bilan bituvchi “sari‘ul-qalam kotib” Mavlono Soyiliy, muzika ustasi Darvesh Ahmad Samarqandiy, talantli shoir Mirzobek, andijonlik shoirlardan Yusufshoh Safoiy va boshqa ko‘p shoir va san‘atkorlar ham istiqomat qilar edilar. Shoir o‘zining

samarqandlik ijodkor do'stlari bilan fors-tojik va turkiy shoirlarning asarlarini sinchiklab o'rganadi, ular yuzasidan bo'lgan bahslarda qatnashadi.

Navoiy Samarqandda ekan, Xurosonning ahvoli hamon yomon, Abdusaid xalqni har tomonlama ezmoqda edi. Navoiy Xurosonning bu davrdagi ahvoliga baho berar ekan: "Sulton Abusaid Mirzo zamonidakim, Xuroson ahli Samarqand ahliga asir erdilar va har nav zulm va taaddiki, alardin voqe bo'lsa, bu asirlar (Hirot aholisi) mute va farmonpazir", - deb yozadi.

Navoiyning xalqparvarlik va odillik kabi fazilatlarini bilgan ko'pchilik omma uning vazir sifatida ko'tarilishidan juda mamnun edi, ilm va san'at ahlari uni sharaflar va shoirlar Amir Alisherning muhr bosgan kuniga atab "tarix"lar bitgan edi.

Navoiyning o'z e'tiroflaridan va o'sha zamon tarixchilarining yozganlaridan shu narsa seziladiki, bu davrda Navoiy katta huquqlarga ega bo'lgan. U davlat ishining deyarli hamma sohasiga aralashar, eng murakkab va muhim masalalarni ham o'zi hal qila olar edi. Navoiy kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlar, o'zining shaxsiy, hatto ijodiy ishlarini ham ikkinchi planga surib qo'yishga majbur bo'lgan edi. O'z vazirlik yillari haqida shoir "Hayrat ul-abror"da:

Kim bor edi boshima ko'p mehnatim,

Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim, —

deb yozadi. Bunda ayniqsa, mazlumlarning arz-dodini eshitish, ularga yordam berish, hojatini chiqarish, zolimlarning qo'lini zulmdan tiyish eng ko'p vaqtni olar, shikoyat bilan keluvchilarning esa son-sanog'i, oxiri yo'q edi. Arz qilgan masalalar bitta Navoiyning o'zi hal etishi mumkin bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi masalalar ham ediki, shoir ularni "butmagi aql oldida imkon emas", deb ta'riflaydi. Navoiy davlat ishlarini nihoyatda halollik bilan, faqat xalq va davlat manfaatlarini ko'zlab, insof va adolat asosida olib borishga intiladi.

Hirotning o'sha davrdagi shuhratini dunyoga yoygan binolardan biri Navoiy qurdirgan "Ixlosiya" madrasasi bo'ldi. Shu madrasaning janubida "Xalosiya" nomli katta xonaqoh barpo etildi. Madrasaning g'arbida "Shifoiya" nomli bino qurilib, bu yerda mashhur tabiblar to'plandi. Madrasaning g'arbida yana katta

Masjidi jome, masjid yonida bir gumbaz ham qurilgan. Bu gumbazga “Dorul - xuffoz”(“Qorilar uyi”) deb nom berilgan. Navoiy kutubxonasida 70 dan ortiq xushxat kotib va naqqosh xat ko‘chirish, kitoblarga ziynat berish bilan shug‘ullangan. Bulardan tashqari, Navoiy Hirotning ichida “Nizomiya”, Marvda “Xusraviya” nomli madrasalar qurdirgan. Hirot va boshqa shaharlarda yana 10 dan ortiq xonaqoh, 20 dan ortiq masjid qurilgan. Navoiyning qurilish ishlari butun Xuroson va uning shaharlarida olib boriladi. Navoiy ixtiyoridagi mablag‘lar hisobiga qurilgan binolarning soni ba’zi manbalarda uch yuzdan ortiq deb, ba’zi manbalarda to‘rt yuzga yaqin deb ko‘rsatiladi.

Navoiy mamlakat uchun qancha ko‘p qayg‘urmasin, uning qilayotgan ishlarini shoh bora – bora kam qo‘llab – quvvatlaydigan, fitna va bo‘xtonlarga ishonadigan bo‘lib qoladi. “Tazkirat ush-shuaro” muallifining xabar berishiga ko‘ra, haqiqatdan ham Navoiy ma’lum bir vaqtdan keyin Sultonning o‘zidan ayniganing, shoirga qarshi uyushtirilgan yolg‘on – yashiriq ig‘volar ta’siriga tushganining guvohi bo‘ladi va tezroq davlat ishidan ketish taraddudiga tushadi. Binobarin, Husayn Boyqaro atrofida to‘planib olgan fisqu – fujurchi amaldorlar ham o‘z mavqeini mustahkamlash uchun kurashni kuchaytirib, Navoiyni saroydan chetlashtirish payiga tushgan edilar.

Alisher Navoiy davlat arbobi sifatida o‘z davri ziyolilarini, olim va san’atkorlarini, rassom va muhandislarini, xattot va shoirlarni o‘z atrofiga tortdi. Hirot adabiy muhitidagi eng mashhur va hammaga manzur kishi, zabardast shoir va olim Abdurahmon Jomiy edi. Navoiy Jomiyning garchi yigitlik davridan boshlab tanisa ham, lekin ular orasidagi eng yaqin munosabatlar shu davrda o‘rnatildi. Navoiy undan faqat adabiy va ilmiy jihatdangina maslahat olmay balki vazirlik lavozimi taqozosi bilan davlat ishlarid, siyosiy va ijtimoiy faoliyatda ham maslahatlar olib turardi. 1476 – 1477-yillar orasida esa u Jomiyning o‘ziga pir sifatida tanlagan edi.

Bu davr Hirot madaniy hayotida Shayxim Suhayliy, Atoulloh Mahmud Husayn, Husayn Jaloyir, Muhammad Solih Ahliy, Ohiy, Osafiy, Hiloliy, Binoiy, Xotifiy, Mir Husayn Muammoiy, Sayfi Buxoriy, Abdullohiy, Mulla Muhammad

Badahshiy, Yusuf Badeiy kabi o‘z davrida ko‘zga ko‘ringan va devon tartib etgan o‘nlab shoirlar; Mirxond va Xondamir kabi tarixnavislar, Sulton Ali Mashhadiy, Mirali va Abdujamil kabi usta xattotlar, qilqalam rassom va go‘zal miniaturalar sohibi Behzod, Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib, mohir sozanda va musiqachilardan Xoja Yusuf Burhon, Mavlono Alishoh, Xoja Abdulloh Marvarid, Shayxi Noyi, Qulmuhammad Udiy, Mirmurtoz, Husayn Udiy, Shohquli G‘ijjakiylar, talaygina hofizlar yashar va ijod etar edilar.¹⁰

1500-yil dekabrining oxirlarida Husayn Boyqaro Astrobod yurishidan qaytar edi. An’anaga ko‘ra, saroyning barcha e’tiborli kishilari shohni kutib olishga yo‘la chiqadilar. Ular orasida Navoiy ham bor edi. Sog‘lig‘i juda yomonlashganiga qaramay, shoir saardan qaytgan sulton huzuriga yetib keldi va hamrohlari yordamida uning ko‘ksiga bosh qo‘yib, hushidan ketadi. Shu ahvolda yarim tunda uni uyga olib keladilar. Ertasiga mashhur tabiblar maslahatga to‘planib, qon olmoqqa qaror beradilar. Ammo buning foydasi bo‘lmaydi. Uch kun hushsiz yotgan Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida vafot etadi. Butun xalq: shohdan gadogacha, olimdan cho‘pongacha, shoirdan dehqongacha ulug‘ farzandining o‘limiga qayg‘u va izzat bilan motam tutadi.

1.3. “Xamsa” asarining yaratilish va xamsachilik an‘analari haqida. Ulug‘ Navoiyning “Xamsa” yozish istagi bu yo‘ldagi zahmatli mehnati shoirning o‘zidan ilgari o‘tgan ustozlariga bo‘lgan muhabbati, ayniqsa, xamsachilikdagi iste’dodiga oid ilmiy talqinlar O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi B.Valixo‘jayevning ilmiy – nazariy xulosalarida o‘zining yorqin ifodasini topa olgan. Olim buyuk shoirning dohiyona ruhiy olami, zabardastligi, tengsiz iste’dodi haqida fikr yuritir ekan quyidagilarni bayon etadi: “Saddi Iskandariy” dostonida shunday yozadi:

G‘arazkim chu nazm o‘ldi tuhmat menga,

G‘azal tarziga avval aylab sitez,

Jahon ichra soldim ulug‘ rastoxez...

¹⁰ Ўзбек адабиёти тарихи. II том. – Т.: “Фан”, 1978, 47-64-б.

Har asnofi zikri emas sha'nima,
Bilur har kishi boqsa devonima.
Vale qone o'lmay ushoq ishga hech,
Dimog'imda erdi ulug' pech- pech.
Ne maydon aro sursam erdi samand,
Havosin ko'ngul qilmas erdi pisand.
Xayolimda kishvarsitonlig' kirib,
Mamolikda sohibqironlik kirib.
Bu andeshadin erdi ko'nglumda shayn
Ki bo'ldi ko'ngul moyili xamsatayn...

Bu buyuk shoir masnaviy janrida "Xamsa" yaratar ekan, uning mas'uliyatini chuqur his etadi, buyuk Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviylarning xamsachilikdagi iste'dod va san'atlariga qoyil qolganligini tan oladi. Shu bilan birga o'zining bilim, kuchi, san'atini sinab ko'rishni ham maqsad qilib qo'yadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq...
Kerak sher oldida ham sher jangi
Agar sher bo'lmasa, bore palange.

Alisher Navoiyning "Xamsa"si buyuk beshlik tarzida shuhrat qozongan bo'lib, uning maydonga kelishi ham mavjud an'ana hamda zamonadagi badiiy – estetik talablar natijasi sifatida qaraladi. Ma'lumki, xamsa yozish an'anasi islomiy sivilizatsiya tarqalgan o'lkalardagi uyg'onish davri mahsulidir. Xamsa deb ataluvchi asarlarning maydonga kelishigacha, ya'ni XII asrgacha bo'lgan davrda turkum qissa va dostonlardan iborat "Kalila va Dimna", "Sindbodnoma"(Rudakiy), "Shohnoma"(Firdavsiy), "Qutadg'u bilig"(Yusuf Xos Hojib) kabi forsiy va turkiy tillarda bitilgan turkum asarlar mavjud edi. Eslatilgan asarlarning ayrimlari bir syujetli ("Qutadg'u bilig") bo'lsa, boshqalar ko'p syujetli ("Kalila va Dimna", "Shohnoma") asarlaridir. Xuddi ana shu davrda xamsa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan badiiy janr sifatida shakllandi. Shuning natijasida u ham bir syujetli, ham ko'p syujetli hamda syujetsiz – maqolotlardan iborat asarlardan tashkil topdi,

ya'ni qurilish jihatidan ko'pqirrali janr bo'ldi. Uning asosiy mavzusi ham insonning ko'pqirrali faoliyatini badiiy obrazlar misolida aks ettirishdan iboratdir.

Alisher Navoiy, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy xamsalarining o'ziga xosliklari hamda ularning forsiy tilda ekanini ta'kidlab, bir tomondan, o'zigacha mavjud bo'lgan xamsa yozish an'anasini takmillash, kamolot bosqichiga ko'tarish va ikkinchi tomondan esa ana shunday nodir kashfiyot bilan turkiy xalqlarni bahramand etishni o'z oldiga maqsad qilib, ularni sharaf bilan uddalagani haqida haqli ravishda shunday yozadi:

Kim bu yil ichraki alar soldi gom,
Bir necha gom o'lsa manga ham xirom.
Forsi chu bo'ldi alarg'a ado,
Turki ila qilsam ani ibtido.
Forsi el topti chu xursandliq,
Turk dag'i topsa barumandlik.
Manga "Xamsa" takmili bir yon edi,
Bu maqsud tahsili bir yon edi.
Ne til birla dey shukur ma'buduma,
Ki yetkurdi oxir bu maqsuduma.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning "Xamsa"si, —deb yozadi S. Ayniy,—Sharq mumtoz adabiyotining eng go'zal namunalaridan biridir. Mashhur adib va olim Oybek esa shunday yozgan edi: "Navoiyning gigant mehnatining mahsuli bo'lgan ajoyib kitob — "Xamsa" o'z zamonasiga qadar inson fikriy taroqqiyotining juda asl, juda qimmatli quymalarini o'zida to'plagan xazinadir".

Alisher Navoiy "Xamsa" yozishga 1483-yilda kirishib, uni 1484-yilning sentabr oylarida tugatgan bo'lsada, ammo unga sarf qilingan vaqt, ya'ni bevosita yozishga sarf qilingan muddat olti oydan iborat bo'lgan. Alisher Navoiyning "Xamsa"si quyidagi dostonlardan iborat: "Hayrat ul-abror" (1483-yil), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" (1484-yil).

Bu dostonlar xamsa janri talablari asosida o'zaro bog'liq yaxlit tukumni tashkil etadi. Shuning uchun uning birinchi dostoni ("Hayrat ul-abror") fikriy – nazariy

qurilmaga asoslangan bo'lsa, boshqalari ana shu dostonidagi fikriy – nazariy dasturni badiiy timsollarda ifoda etadigan dostonlardir. Shu jihatdan “Xamsa”ning birinchi dostoni bo'lgan “Hayrat ul- abror” (“Yaxshilarning hayratlanishi”) butun turkumning fikriy – nazariy dasturi sifatida badiiy timsol saruzashti qurilmasiga emas, balki fikriy – nazariy masalalarning bayoni – maqolot hamda ularni tasdiqlaydigan kichik hikoya va masalalardan tashkil topgan qurilmaga asoslangan “Hayrat ul-abror”ning nomlanishi va yozilish yili haqida Alisher Navoiy shunday yozadi:

Hayrati abror ko‘rub zotini,
“Hayrat ul-abror” dedim otini.
Nuktai tarixiki, ahsan edi,
Sekkizu Sekkiz yuzu seksan edi.

Ya’ni asarni o‘qigan yaxshi odamlarning hayratda qolganligini e’tiborga olib, dostonni “Hayrat ul-abror” – “Yaxshilarning hayratlanishi”deb atadim. Uning yozilgan yili tarixi esa 888 hijriy – 1483 melodiy yil edi. “Hayrat ul- abror”ning maqolotlarida insonning komillikka erishuvi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy – ma’rifiy omillar ham keng tarzda qalamga olingan. Jumladan, odob va hayoni insonning eng ajoyib ma’naviy fazilatlaridan deb biladi:

Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab.
Chunki yog‘in manbai o‘ldi hayo,
Qatrasi tuprog‘ni qilur kimyo.
Bo‘lmas adabsiz kishilar arjmand,
Past etar ul xaylni charxi baland.

Odoblilikning shartlari sifatida ota-ona hurmatini joyiga qo‘yish, katta-kichikka shavfqatli, mehribon bo‘lish, xizmat lavozimini adolat va insof ila ado etish kabilar ham belgilangan¹¹ .

¹¹ Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. I жилд, -Т.: “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси” нашриёти, 2002, 133-141-б.

Alisher Navoiy mavzuga doir ko‘pina tarixlarni ko‘zdan kechirgan. Shunisi ham borki, bu tarixlar faqat yozma manbalardan iboratmi yoki xalq og‘zaki ijodidagi shu mavzuga oid tarix—rivoyatlarni qamrab oladimi yo‘qmi, bu haqida aniq aytilmagan. Buni eslatishdan maqsad shuki, Farhod, Shirin haqidagi qissa faqat yozma manbalarda, dostonlardagina emas, balki xalq og‘zaki ijodida ham X-XI asrlardan boshlab ko‘zga tashlanadi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”i undan oldin shu mavzuda yozilgan dostonlardan, xususan, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy talqinidagi dostonlardan tubdan farq qiladi. Bu farq eng avvalo, ustozlar tomonidan qalamga olingan Farhod obrazining butun bir dostonning bosh qahramoni sifatida talqin qilinishida, Farhodni yaxlit bir ideal obraz — komil inson darajasida tasvirlanishida ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Bu jarayonda Alisher Navoiyning dostonida Farhodning ishqu muhabbatidagi “so‘zu dard” — kuyish va dardlarga alohida e‘tibor berganini uqtirish lozim. Bu haqda Alisher Navoiy shunday yozadi:

Bo‘lurdin dahr bo‘stonida mavjud,
Emasdur g‘ayri so‘zu dard maqsud.
Ki ishq ahlidin o‘lg‘ay dostoni,
Muhabbat xaylidan qolgay nishone.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni o‘zbek dostonchiligi tarixida alohida mavqega ega bo‘lgan badiiy yodgorliklardan bo‘lib, unda ulug‘ shoirning komil inson haqidagi konsepsiyasi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Shuning uchun u juda ko‘p tillarga, jumladan, tojik, turk, rus, gruzin hamda yevropa xalqlari tillariga tarjima qilingan.

Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi uchinchi doston “Layli va Majnun”dir. Bu doston 1484-yilda hazaji musaddas bahrida yozilgan. Bu mavzu arab xalqi orasida maydonga kelib, keyinchalik islom sivilizatsiyasi tarqalgan o‘lkalarda eng mashhur qissqalardan biri bo‘lib qoldi. Olimlarning tekshirishlari shundan dalolat beradiki, avvalida arablarning bani Omir qabilasiga mansub Qays va uning segilisi haqidagi qissa maydonga kelib, bu qissa ibn Qutayba, al-Johiz, Abulfaraj kabi olimlarning “Kitobush-she’r va sh-shuaro”, “Kitob ul-og‘oni” nomli asarlarida hamda

ummaviylar davridagi shoirlar she'rlarida tilga olingan. Keyinchalik esa u islom madaniyati tarqalgan g'ayri arab o'lkalarida to'laqonli badiiy asarlarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Ana shunday shoirlardan mashhuri Nizomiy Ganjaviydir. Undan keyin Xusrav Dehlaviy, Ashraf, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliylar ham bu mavzuda go'zal asarlar yozganlar. Alisher Navoiy o'zining "Layli va Majnun"ini yozayotganda eslatilgan va boshqa asarlardan xabardor edi. Bas shunday ekan, Sharqda mashhur bo'lgan bu mavzuga Alisher Navoiyning yana murojaat qilishiga bois nima edi, degan savolning tug'ilishi tabiiy, albatta.

Bizningcha, avvalo, Alisher Navoiyning o'z e'tiroflaridan kelib chiqib, bu savollarga javob topish mumkin. Alisher Navoiy o'zigacha yozilgan "Xamsa"larning fors tilida ekanligini uqtirib, o'z "Xamsa"sini o'zbek tilida yozishga kirishgan. Demakki, "Xamsa" tarkibiga kiruvchi "Layli va Majnun" haqidagi qissani ham o'zbek tilida yozgan.

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati chun jahonga to'lg'ay,
Turk elig'a dog'i bahra bo'lg'ay.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, umuman merosga, jumladan, Alisher Navoiyning "Layli va Majnun"iga ham istiqlol g'oyasi talablari asosida yondashish, uni tahlil qilishga urinishlar ko'zga tashlanmoqda. Masalan, adabiyotshunos N.Komilovning "Tasavvuf" (T.: "Yozuvchi", 1996) deb nomlangan birinchi kitobining "Ishq otashining samandari" bobi Alisher Navoiy "Layli va Majnun"iga bag'ishlangan. Unda dostonidagi ishqni "ishqi haqiqiy" tarzida tushunishga moyillik ko'proqdir.

Alisher Navoiy "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni "Sab' ai sayyor" (yeti kezuvchi, sayr qiluvchi) deb ataladi. Asarning bunday nomlanishi sababini shoir shunday izohlaydi:

Lutf bu nazm aro bag'oyatdur,
G'araz ammo yeti hikoyatdur.
Chunki qoyil yeti musofir edi,

Ki alar sayr ishiga mohir edi.
Bo'ldi chun bu raqam ishi tayyor,
Qo'ydim otini "Sab' ai sayyor".

Shoir aytmoqchiki, bu dostonda lutf – ko'pqirrali ma'no va mazmun ko'pdir, ammo asosiy maqsad undagi yetti hikoyatdir. Chunki hikoyalarni aytuvchilar sayru sayohat ishiga mohir bo'lgan yetti musofirdir. Shuning uchun doston yozilgach, unga "Sab' ai sayyor" – yetti kezuvchi, sayr qiluvchi musofir deb ot qo'yildi. Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostoni hijriy 889-yilning jumodiyussoniy oyida, melodiyl 1484-yilning iyun oyida yozib tugatilgan:

Garchi tarixi erdi sekiz yuz,
Sekson o'tmish edi yana to'qquz.
Oyi oning jumodiyussoniy,
Varaqu satrin aylabon ta'yin,
Baytini besh ming ayladim taxmin.

Shunisi ham borki, doston to'rt oyda, ya'ni 1484-yilning mart – iyun oylari oxirida yozilgan bo'lsa-da, ammo boshqa ishlar bilan band bo'lmaganda, uni to'rt hafta – bir oyda yozish ham mumkin edi, deydi shoir:

Menga ayyomi garchi yod emas,
Lek to'rt oydin ziyod emas.
Bo'lmas o'zga umurdin emin,
Bor edi to'rt hafta ham mumkin.

5000 baytdan iborat bo'lgan asarning shu muddat ichida yaratilishi shoirning qaynoq buloqdek ijodiy ilhomi jarayonini anglash va tasavvur etishga imkon beradi.

"Saddi Iskandariy" "Xamsa"ning beshinchi yakunlovchi dostoni bo'lib, u 1484-yilning ikkinchi yarmida (taxminan sentabr – oktabr oylarida) yozib tugatilgan. Bu holni Alisher Navoiyning shaxsiy kotiblaridan biri bo'lmish Abduljamilning yaxlit "Xamsa"ni 1484-yilda ko'chirgan va hozirda O'zRFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan nusxasi ham tasdiqlaydi. Bunga ilova tarzda shuni ham eslatish joizki, Abdurahmon Jomiy o'zining "Oinai Iskandariy"

dostonini 1484-yilning 28-dekabrida yozib tugatgan edi. Ayni ana shu dostondan Alisher Navoiy “Xamsa”siga Abdurahmon Jomiy tomonidan berilgan yuksak baho (Ba turki zabon naqshe omad ajab, Ki jodu damonro buvad muhri lab) o‘rin olgan. Demak, “Saddi Iskandariy” dostoni 1484-yilning ikkinchi yarmida yozib tugatilgan va “Xamsa” to‘liq holatda Abdurahmon Jomiy nazaridan o‘tib, yuksak bahoga sazovor bo‘lgan.

“Saddi Iskandariy” dostoning asosiy mazmun – g‘oyasini adolat, odil podshoh va insonning komillikka erishuvi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar tashkil etadi. Alisher Navoiyning Iskandar obrazini chizishda, uning fazilatlarini bayon etishda g‘olibligining boisi nimada ekanligiga e‘tibor berib, uni hamisha olimu fuzalolar qurshovida tasvirlaydi. Iskandarning rubi maskun jahondori bo‘lishi, adolati va g‘olibiyati tufayli topgan shon – shuhratining asosiy sabablaridan biri ilm va hunar ahliga tayanganligida deb biladi.

Darhaqiqat, buyuk “Xamsa” o‘zbek adabiyoti tarixida shunday ulug‘ bir kashfiyot, muhim bir mo‘jizaviy hodisaki, uning mohiyatini ulug‘ shoirning ustoz Abdurahmon Jomiy quyidagi misralarda g‘oyatda samimiyat bilan ifoda etganlar:

Turkiy tilga dog‘i naqsh keldi ajab,
Hatto sehrgarlar bo‘ladilar lab.
Bunday yoqimli naqsh tushirgan qalam,
Boshiga ofarin yog‘dirlsin olam.
Kechirsin forsiyda gavhar terganlar,
Dariy tilida dur, g‘azna berganlar.
Buning tili ham gar bo‘lganda dariy,
Majolsiz qolardi ularning bari.

(“Oinai Iskandariy”).

Bu — Alisher Navoiy “Xamsa”si o‘sha davrda mavjud bo‘lgan Sharq xamsanavisligi an‘anasida ulug‘ bir adabiy kashfiyot ekanining shu sohada o‘zi ham qalam tebratgan buyuk shoir va alloma ustoz Abdurahmon Jomiy tomonidan e‘tirof etilishidir. Agar buni forsiygo‘ylarning e‘tirofi deb bilsak, unda Husayn Boyqaroning “Xamsa” muallifiga ko‘rsatgan buyuk hurmati, o‘zi minadigan oq

otga mindirib, jilovdor bo‘lganligi, Alisher Navoiyni nazm mulkining sohibqironi va qahramoni deb atashini turkiygo‘ylarning e’tirofi sifatida qabul qilish mumkin. Demak, Sharqda forsiy va turkiy tillarda so‘zlashuvchilar Alisher Navoiy “Xamsa”sini buyuk adabiy hodisa – kashfiyot deb bilganlari diqqatga sazovordir.¹²

Navoiy umrining so‘ngini Abdulla Ansoriy qabrini obod qilishga sarflaydi. Ayni paytda, ijoddan qo‘l uzmaydi. Boshlab qo‘ygan ishlarini nihoyasiga yetkazdi. Yangi asarlarga qo‘l urdi. 1495-1496-yillarda “Nasoyim ul-muhabbat”(“Muhabbat shabadalari”) asarini yozib tugatdi. 1498-yilda Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ni qayta ko‘zdan kechirib, to‘ldirdi. Shoirning adadini 459 taga yetkazdi. Shu yili yoshligidan qalbidan chuqur joy olgan “Mantiq ut-tayr” dostoniga javob yozadi. “Lison ut-tayr” Navoiy ijodini yakunlovchi asarlardan biridir. U, avvalo, shoirning dunyo va borliq haqidagi qarashlarini yakunlaydi.

Buyuk shoir 1498-1499-yillarda xatlarini to‘plab, “Munshoat” (“Xatlar”) kitobini tuzdi. Unga sakson sakkizta xat jamlangan bo‘lib, ularning aksaryati shoirning shoh va shahzodalarga yo‘llangan, janriga ko‘ra xilma – xil bo‘lgan maktublari edi. Bular, shubhasiz, turkiy insho, ya’ni epistolar janri taraqqiyotida muhim ahamiyatga egadir.

Navoiyning ijodiy rejaları ko‘p edi. U Sulton Husaynning tarixini bitmoqchi edi (bu niyatni “Tarixi muluki Ajam” asarining xotimasida aytgan). “Tarixi anbiyo va hukamo”da buyuk shoir Yusuf va Zulayho haqida turkiy tilda bir asar yozajagini ma’lum qiladi. U “Lison ut-tayr”da Shayx San`on muhabbatini hikoya qilar ekan, o‘z muhabbatini ham bir doston etajagini aytgan edi. Biroq, shoirning 1500-yilning oxirlarida yozib tugatgan “Mahbub ul-qulub”(“Ko‘ngillarning sevgani”) kitobi uning so‘nggi asari bo‘lib qoldi. Bu kitob dunyoning achchiq – chuchugini totgan, undan goho “komronlig” (baxtiyorlik) ko‘rgan, goho “notavonlig” (baxtsizlik) topgan buyuk shoir va mutafakkirning oltmish yillik hayotiga yakun bo‘ldi.

¹² Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар.-Т.: “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси” нашриёти, 2002, I жилд,153-185-бет

“Xamsa” — Navoiy dahosining mahsuli, ayni paytda millatimiz tafakkur koʻlami hamda maʼnaviy qudratining timsoli. Yurtboshimiz taʼkidlaganidek: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyat tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimiz gʻururi, shaʼnu- sharafini dunyoga tarannum qilgan oʻlmas soʻz sanʼatkoridir. Taʼbir joiz boʻlsa, olamda turkiy va forsiy tilda soʻzlovchi biron – bir inson yoʻq-ki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va eʼtiqod bilan qaramasa”. Chunki Navoiyni bilish oʻzlikni bilish, Navoiyni sevish millatni sevish, Navoiyga sadoqat eng ezgu insoniy qadriyatlarga sadoqat demakdir.

II BOB. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganish.

Maqsad: Buyuk daho Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni haqida ma’lumot, doston tahliliga oid ilmiy – metodik fikrlar bayoni, IX sinfda dostonni o‘rganilishiga oid ayrim mulohazalar.

Darsning metodi: O‘qituvchining ma’ruzasi, suhbat, ifodali o‘qish, ko‘rgazmalilik, ilmiylik.

Ko‘rgazmalilik: “Farhod va Shirin” dostoni haqidagi miniaturalar va rasmlarni namoyish etish.

Darsning borishi: O‘tgan darsda o‘tilgan Alisher Navoiyning hayoti, ijodiy faoliyati va “Xamsa” asarini yaratilishiga oid savollarni o‘rtaga tashlash, o‘quvchilar bilimini aniqlash:

- a) o‘qituvchining “Farhod va Shirin” dostoni haqidagi kirish so‘zi, adabiyotshunos olimlarning doston haqidagi ilmiy talqinlari;
- b) “Farhod va Shirin” dostoni mazmunini bayon etish;
- d) doston haqida o‘quvchilar taassurotini aniqlash.

2.1.Badiiy asar tahlili haqida ma’lumot. IX sinf “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiyning hayoti va adabiy faoliyati, “Xamsa” asari, uning yaratilish tarixi, uni tashkil etgan dostonlar haqida ma’lumot beriladi, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor” dostonlari analiz qilinadi. Analiz bayon xarakterida bo‘lib, bayon jarayonida muallif dostonlarda ifodalangan g‘oya, orzu – umidlar, obrazlar haqida ham to‘xtalib, Navoiy yashagan davrdagi ijtimoiy tuzum va bu tuzumning adolat, erkinlik istagan kishilar boshiga solagan musibatlarini, Layli va Majnun, Farhod va Shirinning fojiali taqdirini, ularning erki, orzu – umidlarini poymol etgan yovuz kuchlarni ochib beradi.¹³

Badiiy asar tahlili ham badiiy asar ustida ishlash bosqichlarining eng muhimlaridan biridir. Tahlilning maqsadi, vazifasi, tarkibi va o‘ziga xos mazmuni mavjud. Tahlilning bosh maqsadi, asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini

¹³ Зуннунов А. Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерклар. Т.: “Ўқувчи”, 1980. 54- б.

anglash, uning asl mazmunini to'g'ri va to'la idrok etishdan iborat. O'quvchilar asarda ask etgan voqea va qahramonlar muallifning nuqtai nazari bilan aloqadorligini, shunga qaramay asardagi badiiy olam bilan haqiqiy hayot orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmasligini anglay boshlaydilar.

Tahlil jarayonida o'quvchilar yozuvchi tomonidan tanlab olingan hayotiy materiallarning muayyan maqsad va vazifalariga bo'ysungan holda tegishli izchillikda kelishini ham bilib olishadi. Bu izchillikni tanlash va ta'minlash ham yozuvchining badiiy – estetik niyatlariga aloqadorligini kuzatishadi, bunga ishonch hosil qilishadi. Asardagi mavjud syujet va kompozitsiyaning o'z – o'zidan yuzaga kelmasligini ongli ravishda tasavvur eta boshlashadi. Tanlangan har bir shakl, janr, uslubning asl mohiyati yorqinlashadi.

Tahlil birdaniga yaxlit tarzda amalga oshmas ekan. Demak, muayyan mavzu yoki yo'nalishlarning tanlab olinishi tabiiydir. Shunga ko'ra, asarning syujeti va kompozitsiyasi, uning obrazlar tizimi, mavzu va g'oyalar qamrovi, poetikasiga xos bo'lgan xususiyatlar alohida – alohida tahlil etilishi mumkin.

Tahlil uchun asarning qaysi bir unsuri jalb etmasin, undan ko'zlangan maqsad bitta bo'ladi. Bu ham bo'lsa, muallif k'zda tutga asosiy masalaga e'tibor berishdir. Maktab dasturlarida bu to'g'ridan – to'g'ri tahlil obyekti sifatida belgilangan. IX sinf “Adabiyot dasturi”da ayrim romanlarda berilgan tavsiflarni kuzatish mumkin. Unda Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”i — falsafiy ta'limiy – ahloqiy doston. Dunyoni tasavvufiy idrok etish. Islomiy ahloqiy tarbiyasi: iymon, ilm, adab, saxovat, rostgo'ylik, xalqqa naf yetkazish . . . , nuqtai nazaridan ko'riladi.¹⁴

O'quvchilarda badiiy didni tarbiyalash va rivojlantirish murakkab masalalardan biridir. O'quvchilar ma'lum darajada adabiy bilimlarga ega bo'lmasdan turib, adabiyot tarixiga doir faktlar va jamiyat tarixi to'g'risida yetarli bilim olmaydilar. IX sinf dasturi o'quvchilarni murakkab adabiy hodisalar ichiga olib kiradi. O'quvchilar bu sinfda uzoq asrlarga mansub bo'lgan asarlar, adabiy yo'nalishlar, adabiy jarayon bilan tanishadilar.

¹⁴ Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Т. 2010, 47-53- б.

IX sinf dasturidan o‘rin olgan xalq og‘zaki ijodi, yozuvchilar ijodi tarixiy – adabiy jarayonning uzviy sohasi sifatida o‘rganiladi; har bir yozuvchining ijodi qaysi traditsiyada rivojlangani, adabiyotning umumiy rivojiga qanday yangilik qo‘shgani aniqlanadi. IX sinf o‘quvchilari asarning g‘oyaviy – estetik evolyutsiyasini, siyosiy va adabiy yo‘nalishlarga munosabatini aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Mana shularga ko‘ra, IX sinfdagi dars IV – VII sinfdagiga nisbatan boshqacha xarakterda bo‘ladi, asarni analiz qilish murakkablashadi, o‘quvchilar qiyinchilikni his etadilar. IX sinfda o‘quvchilar badiiy asarlarni sistemali o‘rganib, ular haqida fikr yurita boshlaydilar, asarni tahlil qilish bilan har bir obrazda oldinga surilgan g‘oyani, fikrni bilib oladilar. Ularda faqat obrazga emas, balki asar muallifiga, uning fikr – o‘ylarini bilishga qiziqish ortib boradi, natijada uni ijodkor shaxs, talant egasi sifatida his etadilar. IX sinf o‘quvchilarida yozuvchini ana shu zaylda tasavvur etish birinchi kun mashg‘ulotdan boshlanadi. Shuning uchun ham, ular Alisher Navoiy va uning “Farhod va Shirin” dostonini qiziqib o‘rganadilar, ularda bu asar haqida to‘liq tasavvur hosil bo‘ladi. O‘quvchilar “Yozma adabiyot” mavzusini, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga kirishganlarida adabiyot nima ekanini chuqur his etadilar. Alisher Navoiyning orzu –istaklarini, uning podsho va riyokor shayxlarga bo‘lgan munosabatini payqab oladilar. O‘quvchilar Alisher Navoiy yaratgan obrazlarni o‘rganish bilan hayot va odamlar haqida fikr yurita boshlaydilar. IX sinfda ham asar yuzasidan suhbat o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotdan so‘ng asar o‘qiladi, tekst ustida ishlanadi va tahlilga kirishiladi.¹⁵

O‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, buyuk daho ijodkor Alisher Navoiy o‘zining “Xamsa” asarini yaratish bilan jahon adabiyotiga yangi, muhtasham, eng muhimi kitobxonni hayratga soluvchi bino yaratdi. Buyuk shoirning besh dostoni o‘z ichiga olgan ilmiy ummoni jahonning 70 dan ortiq tillariga tarjima qilindi. Sababi shumikim, xitoy, olmon, fors – tojik, yapon va boshqa millat kitobxonlari shoir asarlarini jon dildan sevib tilga oladilar. Ana shuning uchun ham mamlakatimiz jonkuyari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov

¹⁵ Зуннунов А., Эсонов Ж. Мактабда адабиёт ўқитиш методикаси. Т. : “Ўқитувчи”, 1985, 83-85- б.

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida buyuk shoirga baho berib: “Agar bu ulug’ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakklarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”, - degan edi.¹⁶

Shundan so’ng o’qituvchi o’rganilayotgan mavzuni ilmiyligini ta’minlash maqsadida Respublikamiz olimlarining Alisher Navoiyning badiiy san’ati, uning “Xamsa” asarining jahonshumul ahamiyati, shuningdek, “Farhod va Shirin” dostonining poetik qiymatiga oid fikrlarini bayon etadi. Bu narsa o’qituvchining faqat IX sinf darsligida aytilgan ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan “Xamsa” asarining tahlili, undagi dostonlarning jahonshumul ahamiyati haqida ham o’quvchilarga ma’lumot berish imkonini beradi. Shu maqsadda o’qituvchi o’zining “Farhod va Shirin” dostonini o’rganishga bag’ishlangan kirish mashg’ulotida o’zbek mumtoz adabiyotining III tomini yaratgan akademik B.Valixo’jayevning ilmiy fikrini keltirishi, Alisher Navoiy ijodiga berilgan yuksak baho hisoblanadi. Doston an’anaviy hamd va na’tlar bilan boshlanib, qalam vasfi, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy haqidagi boblardan so’ng dostonning yozilish sabablari va undan kuzatilgan maqsad bayoni beriladi. Shundan so’ng Badiuzzamon mirzoga bag’ishlangan bob keladi. Bularning hammasi dostonning muqaddimasi bo’lib, undan keyin Farhodning tug’ilishi, unga nom qo’yish bilan bog’liq hamda Farhodning vafotigacha bo’lgan sarguzashtlari bayon qilinadi. Farhod vafot etgach, Sheruya Xusravni o’ldirib, Shiringa talabgor bo’ladi. Shirin esa Farhod qabrida uning yonida vafot etadi. Bu xabarni eshitgan Mehinbonu ham olamdan o’tadi. Xuddi shu vaqtda Chindan Farhodni yo’qlab Bahrom keladi, Farhod vafotini eshitadi. Sheruyani yengib, Arman o’lkasida bir odil kishinipodshoh qilib qo’yadi. Dostonning voqeasi shu yerda tugaydi.

Dars davomida masalaning bunday qo’yilishi o’quvchilarda “Farhod va Shirin” dostoning tarixiyli, uning yaratilish sabablari, mazmuni, ayniqsa, buyuk shoirning mavzu tanlashda uning mahoratini o’rganish imkonini beradi. Bu haqda taniqli adabiyotshunos olim, prof. G’. Karimov quyidagilarni bayon etadi: “Ulug’ san’atkor va donishmand mutafakkir Navoiy inson va uning ichki his – tuyg’ulari

¹⁶ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008, 47-b.

to'g'risida so'zlaydimi, koinot kengliklaridan bahs ochadimi yoki bo'lmasa kichik lirik she'rlarida muhabbat qo'shig'ini to'qiymidi, lirik, epik asarlarida tiyan falsafiy tushunchalarni bayon etadimi — hamma o'rinda, u yoki bu munosabat bilan gul va gulshandan bahs ochadi . . .

Navoiy yaratgan bog'ning kishini hayratga soluvchi gulshani bu uning "Farhod va Shirin" dostonidir. Adib ushbu asarni yozishga kirishar ekan, bu ko'hna sharq afsonasini yangi mazmun bilan boyitib, unga yangicha ruh va bo'yoq berishga jazm qilganini aytadi va shunday yozadi:

Oni nazm etki, tarhing toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayl beandoza bo'lg'ay.
Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq,
Muqarrar aylamak sandin na loyiq".¹⁷

2.2. O'qituvchining Alisher Navoiyning "Xamsa" asari, undagi "Farhod va Shirin" dostonini haqidagi kirish so'zi. Alisher Navoiy "Xamsa"sini tashkil etgan asarlar o'rtasida "Farhod va Shirin" dostoni alohida ajralib turadi. Ulug' shoir bu dostonni qadimgi Sharq adabiyotida uzoq tarixga ega bo'lgan Farhod afsonalari, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy kabi Sharq adabiyotining mumtoz so'z san'atkorlari yaratgan "Xusrav va Shirin" dostonlarining hayotiy traditsiyalarini davom ettirgani, boyitgani holda yangi, mustaqil syujet, g'oya va obrazlarga ega bo'lgan asar sifatida ishladi. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining muqaddima boblarida bu masalalarga mufassal to'xtalib o'tadi. "Xusrav va Shirin" manzumasini Sharq adabiyotida birinchilardan bo'lib keng epik planda ishlab shuhrat qozongan ulug' ozarboyjon shoiri Nizomiy Ganjaviy, Hindistonda fors-tojik adabiyotiga asos solgan iste'dodli qalam sohibi Xusrav Dehlaviy nomlarini hurmat bilan tilga oladi. Ular tomonidan amalga oshirilgan ijodiy ishning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. "Farhod va Shirin"ning maydonga kelishi esa bu silsila tarixida yangi bosqich bo'ldi. Shunga ko'ra ham Sharq

¹⁷ Бадриев Ф., Худойбердиев А. Алишер Навоийнинг "Фарход ва Ширин" дostonи хақида // Til va adabiyot ta'limi. 2011, 8-son, 57-b.

adabiyotida Farhod qissalari tarixini kuzatish bu bilan birga ulardan har birining o'ziga xos takrorlanmas fazilatlarini ta'kidlash jihatidan juda muhimdir.¹⁸

“Farhod va Shirin” 1484-yilda yozilgan bo‘lib, 54 bob (5782 bayt)ni o‘z ichiga oladi. Shundan o‘n bir bob muqaddima, ikki bob xotima, qolgan qirq bir bob esa doston voqealarining asosini tashkil qiladi. Muqaddimaning dastlabki boblari hamd, na‘t va bir qator bag‘ishlovlardan iboratdir. Keyingi bir necha bobda esa Navoiy dostonning yozilish sabablariga batafsil to‘xtalib, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf kabi shoirlarning “Xusrav va Shirin” yaratish borasidagi tajribalarini tilga oladi. Mohiyat jihatidan bir butunlikni tashkil qilgan bu boblarda Navoiyning “Hayrat ul-abror”dan keyin “yana bir kon” qazishga — Farhod qissasini yaratishdek katta ijodiy ishga kirishganligini aytadi. Alisher Navoiy Nizomiy va Xusrav Dehlaviy kabi ustodlar qadam qo‘ygan ijod maydoniga kirib, ular bilan bellashish — “Xusrav va Shirin”larga javob yozishning naqadar mushkulligini chuqur his qilgani holda ish boshlaydi.

Farhod, Xusrav, Shirin nomlari bilan bog‘langan qissalar Sharqdagi o‘zbek, tojik, ozarboyjon, eron, hind va afg‘on xalqlari o‘rtasida ancha keng tarqalgan bo‘lib, ularning ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. 60-70-yillarda O‘zbekistonda adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida samarali ishlar qilinganini qayd qilish lozim bo‘ladi. Bu yillarda metodist olimlardan S.Dolimov, A.Zunnunov, Q.Ahmedov kabi ko‘p yillar maktabda ishlab, tajriba orttirgan, til va adabiyot fanidan dars bergan tajribali o‘qituvchilar o‘z kuzatish va tajribalarini ilmiy ish bilan bog‘lab, metodik qo‘llanmalar yaratdi. Chunonchi, A.Zunnunov uzoq vaqt olib borgan tajribalarini yakunlab “G‘afur G‘ulomning hayoti va ijodini X sinfdagi o‘rganish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, 1962-yilda uning “G‘afur G‘ulomning hayoti va ijodiy faoliyatini yuqori sinflarda o‘rganish” nomli metodik qo‘llanmasi nashr etildi. Olim tomonidan “O‘zbek adabiyoti metodikasi tarixi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va shu nomli kitobni 1980-yilda “O‘qituvchi” nashriyotidan chiqaradi. Zahmatkash olim tomonidan 1968-yilda “V – X sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish”, “Maktabda badiiy asar

¹⁸ Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарход қиссаси. – Т.: “Фан”, 1985, 3-4-б.

tahlili” kabi metodik qo‘llanmalari chop etildi. Professor A.Zunnunov keyinchalik “Pedagogika nazariyasi” , “Pedagogika tarixi” darsliklarini yaratdi. Shuningdek, “Adabiyot o‘qitish metodikasi” 1985-1991-yillarda ettirdi. Darslikda “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanining maqsad, vazifalari, badiiy asar tahlili, adabiy o‘qish mashg‘ulotlarining tur va metodlari, yozuvchi tarjimaiy holini o‘rganish kabi masalalar nazariy va maktab tajribalari misolida yoritilgan.

Yuqoridagi darslik va metodik qo‘llanmalarni o‘rganishdan maqsad, buyuk Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishga oid mavzuni qay darajada yoritilganini aniqlash ko‘zda tutiladi. Shunga ko‘ra prof.A.Zunnunovning “Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi” darsligida VIII sinflarda Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishga oid, aniqrog‘i, asar syujetini o‘qituvchi tomonidan bayon qilishga oid nazariy fikrlar berilgan.

2.3. “Farhod va Shirin” dostonini syujeti, kompozitsion tuzilishi.

Nasriy bayonchilik, tabdil, badiiy asarni nazmdan nasrga o‘girish an‘nasi boshqa adabiy hodisalar singari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. XIX asr boshida Navoiy dostonlari nasriy bayonlarining dastlabki namunalari Xorazmda adib Umar Boqiy tomonidan yaratildi. Bu Navoiy dostonlarini falsafiy “murakkab” adabiyotdan — “sodda” adabiyotga, janrdan – janrga o‘girishning ilk namunasi edi.

Umar Boqiy XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlarida Xorazmda ijod etgan. Umar Boqiy haqida bizgacha nihoyatda kam ma‘lumot yetib kelgan. Unin faoliyati Navoiy dostonlari asosida yaratilgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” qissalari olimlarimiz tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan.

Umar Boqiyning “Farhod va Shirin” qissasi va Navoiyning shu nomli dostoni qiyoslab o‘rganilgan dastlabki tadqiqot Abdurauf Fitratning 1930-yili “Alanga” jurnalida (1 – 2-sonlar) chop etilgan “Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida”gi maqolasidir. Fitrat qissa va dostonning qiyosiy tahlilidan oldin, umuman, “Xusrav va Shirin”, “Farhod va Shirin” sayyor syujetlarining adabiyotga kirib kelishi, Firdavsiydan, Besutun tog‘laridagi bitiklardan to Navoiygacha bosib o‘tilgan yo‘li xususida batafsil to‘xtaydi. Markaziy Osiyo, xususan, Boysunda mazkur syujetlar asosida paydo bo‘lgan xalq hikoyalari haqida ham fikr yuritadi.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni 54-bobdan iborat. Umar Boqiy dostonni xalq kitobiga aylantirishda kompozitsion yaxlitlash yo‘lidan boradi. Dostonni bir necha qismlarga ajratib, ularni o‘zi nomlaydi. Navoiy dostonidagi sarlavhalarni aynan takrorlamaydi.

Jumladan, asar boshlanishi Navoiy dostoni birinchi bobidagi kabi sarlavhasiz berilgan. “Va ollohi A`lam shahzoda Farhodni oynai Iskandarga boqqani hikoyasi”, “Shahzoda Farhodni oynai Iskandarni tamosho qilib otashi ishqqa giriftor bo‘lg‘ani”, “Farhodni ariq qozimoq bilan balo tog‘ini boshiga yog‘durg‘onini hikoyasi”, “Va bu asnoda Farhod parivashi uchun Xusravi zolimning elchi yiborganini hikoyasi” tarzida nomlanadi.¹⁹

“Farhod va Shirin” dostonining syujeti uning g‘oyat ko‘p epizodlardan tashkil topganligini ko‘rsatadi. Bu epizodlar ichida Farhod bilan Shirin sarguzashtlarining boshlanishiga sabab bo‘lgan epizod – Farhodning oynada Shirinni ko‘rib, sevib qolishi tasviridir. Shu sababli bu epizod asar syujetining, Farhod sarguzashtlarning bosh tuguni hisoblanadi.

Doston syujetining kulminatsiyasi Xisrav bilan Farhod o‘rtasida bo‘lib o‘tgan dialogdir :

Dedi: nedur senga olamda pasha?

Dedi: ishq ichra majnunluq hamesha...

Dedikim: ishqig‘a ko‘nglung o‘rundur?

Dedi: ko‘nglumda jondek yoshurundur...

Dedi: ko‘nglung fido qilsa jafosi?

Dedi: jonimni ham aylay fidosi...

Dedikim: shahg‘a bo‘lma shirkat andesh!

Dedi: ishq ichra tengdur shohu darvesh!

Dedi: joningg‘a bu ishdin alam bor.

Dedi: ishq ichra jondin kimga g‘am bor?

Dedi: ishq ichra qatling hukm etgum,

¹⁹Бадриев Ф. Худойбердиев А. Бадиий адабиётни ўқитиш мезони. Бадиий матн таҳлили ва талқин муаммолари.-Т. 2012, 69-70-б.

Dedi: ishqida maqsudumg'a yetkum.

Farhodning insoniy fazilatlarini, shoirning insonparvarlik qarashlari, doston g'oyasi ana shu dialogda o'zining mukammal ifodasini topgan. Doston syujetining yechimi Farhod bilan Shirinning o'limidir.²⁰

“Farhod va Shirin” dostonining kompozitsiyasi:

Dostonning kompozitsiyasi	Tugun	Voqealar rivoji	Kulminatsion nuqta	Yechim
Chin mamlakati hoqonining farzandsizligidan tashvishlanishi va nihoyat o'g'il ko'rishi. Unga Farhod deb ism berilishi. Farhodning tarbiyalanishi.	Farhod kamolotga yetgan sari uning rangi somondek sarg'aya borishi; ma'yusligi, otasining Farhodga o'z xazinasini tomosha qildirishi. Farhodning unda sandiqni ko'rishi. Yunonistonga safar qilishi, Sulaymon uzugini topishi,	Farhodning sog'lig'i tobora yomonlashayotganligi tufayli dengiz bo'yiga olib borilishi, dengizda to'lqin boshlanib, kemalarning g'arq bo'lishi, Farhodning bir taxta ustida hushsiz qolishi va savdogarlar tomonidan qutqarilishi, qaroqchilarni yengishi, Shopur bilan Arman o'lkasiga borishi, ariq qazib, suv chiqarishda shuhrat taratishi. Shirin va	Shirinning go'zalligi haqidagi xabarning Eron podshosi Xisravga yetishi, Xisravning Arman o'lkasiga bostirib kirishi, Farhod, Shirin va Mehinbonu bilan zolimlar o'rtasidagi nizolar. Zulmning	Farhodning o'limi. Shirinning vafodolarlarcha halok bo'lishi. Zolimlarning parokanda bo'lishi. Arman yurtida tinch va osoyishtalikning o'rnatilishi.

²⁰ Зуннунов А.Мактабда адабиёт ўқитиш методикаси.- Т.: “Ўқитувчи”,1985,119-120-б.

	tilsimning ochilishi. Suqrot gʻoriga borishi, sirli oinani olib unda Arman dashti va bir goʻzal qizni koʻrishi, unga oshiq boʻlishi.	Mehinbonuning kelishi, Farhodning Shirinni sevib qolishi va boshqalar.	avj olishi. Farhod bilan Xisravning achchiq aytishuvi.	
--	---	---	---	--

Oʻqituvchi dostonning kompozitsion tuzilishi haqida yuqoridagi mazmunda maʼlumot berayotganda yuqoridagi jadvaldan foydalanishi mumkin.²¹

²¹ Орифий III. Мактабда лиро- эпик асарларни ўрганиш.- Т.: “Ўқитувчи”, 1981. 35-б.

III bob. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi obrazlarga xarakteristika.

Maqsad: Buyuk daho Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi “Farhod va Shirin” dostonining bosh siymolari Farhod va Shirin obraziga xos xususiyatlar haqida o‘quvchilarga ma’lumot berish; Farhod va Shirin obrazini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda Alisher Navoiy asarlarini o‘qishga nisbatan havasini tarbiyalash, komil insonga xos xususiyatlar haqida fikr yuritish.

Darsning metodi: suhbat, bahs – munozara, o‘qituvchining ma’ruzasi.

Ko‘rgazmalilik: Mavzuga oid portretlar, turli pedtexnologiyalardan foydalanish, Navoiy dahosining tasviri, jadvallar.

Darsning ilmiyligi: Adabiyotshunos olimlarning Farhod va Shirin obrazlari haqidagi fikrlari.

O‘qituvchi: Biz o‘tgan darsda o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, buyuk daho Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini mazmuni, g‘oyasi, undagi qahramonlarning sarguzashtlari haqida fikr yuritgan edik. Uyga vazifa qilib adabiyot darsligining 44-60-sahifalarini o‘qib kelish, Farhodning yoshligi, ilmga chanqoqligiga oid ayrim she’riy misralarini yoq olishni tavsiya etgan edik. Qani kim aytadi:

- 1) Farhod yoshligida nimalarga qiziqadi, kimlardan ta’lim oladi?
- 2) Farhod Arman elida qanday ishlarni amalga oshiradi?
- 3) Farhodning Shirin bilan uchrashuvi voqeasini kim aytib beradi?

Birinchi o‘quvchi: Dostonda tasvirlanishicha yosh Farhod ayniqsa, ilmga qiziqadi. Mashhur imorat ustalari Moniy, Qoranlardan tosh yo‘nish sirlarini o‘rganadi. Unga zamonasining olimlaridan Mulkoro ta’lim beradi.

Ikkinchi o‘quvchi: Farhod “Oinaiy Iskandariy”da go‘zal Shirinning husnu – jamolini ko‘rib bexush bo‘lgach, tog‘da yashayotgan donishmand Suqrot bilan uchrashadi. Buyuk olim uning taqdiri haqida bashorat qilgach Arman o‘lkasiga qarab yo‘l oladi. U yerda mashaqqat bilan tog‘dan ariq qaziyotgan minglab kishilarga javob berib o‘zi qaqragan yerlarga suv ochib obi- hayot bag‘ishlaydi.

Uchinchi o'quvchi: Baland tog'ni o'zining sirli teshasi bilan parchalagan pahlavon Farhodning Shirin bilan uchrashuvi asarda hayajonli tasvir etiladi. Darslikda bu voqea shunday tasvirlangan:

...Ki: "Ey nodir yigit ofoq ichinda,
Yagona charxi nili toq ichinda!
Ayonda holingda ko'p, ko'p bul' ajabliq.
Ajabdin ham ajab ranj-u taabliq".

Mazkur qissaning asosini tarixiy voqelik, ya'ni tarixiy shaxslar hayotidagi voqealar tashkil etsa-da, ammo keyinchalik bu tarixiylik faqat nomlarda saqlanib qolib, voqealar, sarguzashtlar bayonida badiiylik qonuniyati amal qila boshlaydi. Natijada bu mavzuga murojaat etgan har bir shoir o'zining ijodiy maromi, dunyoqarashi va estetik mezonlari asosida asar yaratdi. Shuning natijasida bunday asarlarda tarixiylikdan ko'ra badiiy yaratuvchilik me'yori yetakchilik qilib, undagi obrazlar, voqealarning talqini ham turlicha yo'nalish va maqsadlarda amalga oshiriladi. Shundanda, Xusrav, Shirin, Farhod obrazlarining turlicha tasvirlari, har xil talqinlari maydonga keladi. Jumladan, Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"sida Xusrav va Shirin tarixiy nuqtai nazardan tasvirlanib, unda Shirinni hech qanday aloqasi bo'lmagan bir shaxs sifatida tasvirlagan. Nizomiy Ganjaviy bu mavzuga murojaat etar ekan, balki badiiylik mezonini ustun qilib qo'yadi, ikkinchidan esa obrazlar talqinini o'zlashtiradi. Natijada Farhod toshyo'nar hunarmand hamda Shirinni sevuvchi oshiq sifatida tasvirlanadi. Ammo u dostonning voqealarida boshdan oyoq qatnashmaydi, balki suv kanalini qazish ehtiyoji tug'ilgandan voqealar maydoniga kirib keladi.

3.1. Badiiy asarni ifodali o'qish va sharhlab o'qishga oid metodik fikrlar.

O'quvchilarni badiiy asar bilan tanishtirish dastlab sinfda o'qish bilan boshlanadi. Sinfda badiiy asarni ifodali o'qish o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda eng muhim va ta'sirchan metoddir. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish adabiyot o'qituvchisi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Negaki, "faqat san'atkorona o'qish shoirlar haqida tushuncha hosil qiladi". Shu sababli bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchining o'zi

ifodali o‘qish qonun – qoidalarini, texnikasini bilib olishi kerak. Shundagina u o‘quvchilarning ifodali o‘qish san’atini puxta egallab olishlariga, badiiy asar haqida mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va to‘g‘ri baholash malakalarini egallashlariga erishadi.

O‘qituvchi ifodali o‘qishni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning ona tili darslarida olgan bilimlardan foydalanadi. Ma’lumki, o‘quvchilar ona tili darslarida orfoepik qoidalarini o‘zlashtiradilar. Bunday bilim ifodali o‘qishda tekstdagi intonatsiyani, urg‘uli so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish, o‘z o‘rnida pauza qilish, emotsional, yoqimli ovozda vazn va qofiyalarga qarab to‘g‘ri o‘qishga yordam beradi. Ifodali o‘qish adabiy asarni tushunarli, ta’sirchan o‘qish demakdir. Bu o‘qish san’ati yod olingan materialni ifodali o‘qishni ham o‘z ichiga oladi, og‘zaki nutq bilan bog‘lanadi.

“Sharh” so‘zi arabcha bo‘lib, izohlash, tafsir, tushuntirish, ma’no berish, talqin etish demakdir. Sharh adabiy tekstni talqin etuvchi filologik tadqiqotga xos usul hisoblanadi. Sharh adabiy asarni tadqiq qiluvchi adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, tarix, estetika, tilshunoslik fanlariga bog‘lanadi.

Maktabda qo‘llanadigan tarixiy – adabiy sharhda asarning yaratilish tarixi, adabiyot tarixida tutgan o‘rni, asarda tasvirlangan voqea va shaxslar haqida ma’lumot beriladi. Masalan, VIII sinfdan Alisher Navoiyning “Xamsa” asari xususida gapirilganda uning yaratilishi, uni tashkil etgan dostonlar to‘g‘risida tushuncha beriladi, “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishda undagi tarixiy shaxslar — Arastu, Qorun, Moniy sharhlanadi.

Yuqori sinflarda yozuvchining ijodini o‘rganishda biografik sharhlashdan ham foydalaniladi. Bunda asarning yozuvchi hayoti bilan bog‘liqligi yoritiladi. Masalan, Alisher Navoiy shaxsiyatidagi fazilatlarining u yaratgan asarlarda ham aks etganini ko‘rish mumkin.

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga fayz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynish
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Bu to'rtlikda Alisher Navoiy, olamda kimki biror kasbni mukammal egallab olmasa, u hammomdan toza bo'lmay chiqqan kishiga o'zshib qoladi, degan fikrni ifodalaganki, shoirning o'zi bunga hamisha amal qilib yashagan.

Buyuk shoirning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazi haqida ham shu gapni aytish mumkin. Farhod xarakteriga xos o'qishga, ilm – fanga, san'atga havas, insonparvarlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar Alisher Navoiy shaxsiyatida ham mavjuddir. Shunga ko'ra, Farhod obrazini o'rganishda o'quvchilar e'tibori bu masalaga ham jalb etiladi.

Jahon adabiyotida asar qahramonlari haqida ko'plab misollar keltirilgan. Ochig'i, adabiyotning daholari o'z roman, povest va sahna asarlarida komil inson siymosini yaratishga harakat qilgan. Ammo biror – bir buyuk adib qahramon siymosini Alisher Navoiy darajasigacha yetkaza olmagan, sababi Navoiy ideali — Farhod obrazida insonga xos barcha ijobiy sifatlar badiiy mahorat bilan ishonarli va obrazli tasvir etilgan. Farhod siymosida kishilikning ezgu orzusi bo'lgan mehnatsevarlik, ilmga muhabbat, gumanizm, sahiylik, vatanparvarlik, qahramonlik, shu bilan birga, pok sevgi yo'lida o'zini baxshida etish kabi ibratli voqealar bayon etilganki, kitobxon dostonni o'qirkan hayajonga tushadi, o'zini qahramonlar safiga qo'yadi, dardiga sherik bo'ladi, ba'zan yig'laydi. Jasur Farhodning jodugar hiylasi bilan jon berishi, go'zal Shirinning Farhod nomini takror va takror tilga olib hayotdan ko'z yumishi albatta kitobxonning ruhiyatiga, afsus va nadomatiga, qaro kuchlarini lanatlashiga sabab bo'ladi. Dostonning badiiy – estetik kuchi ham shundadir.

"Xamsa" dostonlaridagi ijobiy qahramonlar Farhod, Shirin, Mehinbonu, Qays, Layli, Shopur, Navfal, Iskandar, Arastu va boshqalar ijobiy ibrat namunalaridir. Ular o'z hayoti mazmunini insonga, xalqqa xizmat qilishda ko'radilar. Ular eng olijanob insoniy tuyg'ularni o'zlarida mujassam etganlar. Bu qahramonlarning faoliyati hayot go'zalligi, inson qalbi pokizaligining yorqin timsolidir, degan edi navoiyshunos olimlardan biri Aziz Qayumov.²²

²² Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди (албом).- Т.: 2010, 44- б.

Alisher Navoiyning bosh qahramoni Farhoddir. Shoir e'tiroficha, u ham Xusrav Dehlaviyda bo'lganidek, Farhodni Chin xoqonining o'g'li sifatida tasvirlaydi. Shunisi muhimki, xoqon oilasida dunyoga kelgan Farhodga nom qo'yish masalasiga shoir alohida e'tibor berib shu nomni talqin qilishda, Farhodning tug'ilishi kelajakdagi komil insonning tug'ilishi sifatida sharhlaydi.

Birinchi sharh:

Ki chun Hoqong'a tengri berdi farzand,
Bo'lub ul hadya birla shodu xursand.
Jamoli birla ko'nglin aylabon xush,
Otin qo'ymoq sori bo'ldi raqamkash.
Kamolidin ko'ringach, farri shohi,
Bu fardin yorudi mah to ba mohi.
Qo'yub yuz himmatu iqbolu davlat,
Hamul far soyasidin topti ziynat.
Bu javharlarga chun isnod topti,
Murakkab aylagach Farhod topti.

Keltirigan misolning uchinchi va to'rtinchi baytlarida Farhod so'zining ma'nosini quyidagicha sharhlagan:

Uchinchi baytda: Chaqaloqning yuzidan shohlik farrishohlik shon shukuhi, yorug'ligi ko'rindi. Bunda Farhod so'zining birinchi qismi — “far” izohlangan. To'rtinchi baytda esa Farhod so'zining ikkinchi qismi — “hod” shunday izohlanadi: uning “h” harfi “himmat” so'zining birinchi harfidan, “alif” (o) “iqbol” so'zining arabcha yozuvda birinchi harfi “d” “davlat” so'zining birinchi harfidan olingan bo'lib, ular to'plansa (“h” + “o” + “d”) “hod” so'zi kelib chiqadiki, uning ma'nosi “yo'l boshlovchi”dir. Bas shunday ekan, Farhod so'zining ma'nosi shohlik shon-shuhratiga ega bo'lgan, himmatu iqbol, baxtu saodat va davlat sohibi degan ma'noni anglatadi. Bu bilan Alisher Navoiy Farhod shahzodagina emas, balki eng olijanob fazilatlarga ega shahzoda ekaniga ishora qilmoqda.

Ikkinchi sharh:

Bu “far”ni “hodi”yi baxt etgach irshod,
Ravon shahzoda otin qo‘ydi Farhod.

Bunda shoir “Farhod” so‘zini ikki qismga — “far + hod” bo‘lib shunday sharhlaydi: shohlik shon-shukuhi va olijanob fazilatlar egasi bo‘lgan shahzoda Farhod – baxt tomon “hodi”lik – yo‘lboshchilik qiluvchi shaxsdir, ya‘ni Farhod baxtli bo‘lishga intiluvchilar rahnamosidir.

Uchinchi sharh:

Bu nav‘ ermas ato qo‘ymadi otin,
Ki ko‘rgach ishq aning pokiza zotin.
Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,
Hurufi ma‘xazin besh qism qo‘ydi.
Firoqu rashku hajru oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.
Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism o‘ldi murattab.

Bunda shoir Farhod so‘zining har bir harfi “firoq”, “rashk”, “hajr”, “oh” va “dard” so‘zlarining birinchi harflaridan (“firoq”dan “f”, “rahk”dan “r”, “hajr”dan “h”, “oh”dan “o” va “dard”dan “d”) iboratligiga ishora qilib, bu bilan Farhodning “ishq”ahlidan ekaniga urg‘u beradi.

Shunday qilib, “Farhod” so‘ziga berilgan bu uch sharhga diqqat qilinsa, unda shu nomga (Farhod) ega bo‘lib, Alisher Navoiy tasvirlagan badiiy obrazning mohiyati ochiladi hamda butun doston davomida u ana shunday fazilatlar bilan namoyon bo‘ladi. Bu hol uning yoshligidan, maktabda o‘qish jarayoni, ilm o‘rganishdan ko‘zga tashlanadi.

3.2.Dostondagi Farhod va Shirin obrazlariga xarakteristika.

Navoiy obrazlarni tayyor holda bermaydi. Farhod va Shirin obrazlari voqeaning o‘zi bilan birga kurash va to‘qnashuvlarda, izlanish va sinovlarda o‘sib, kamol topib boradi. Bu, birinchi navbatda, dostonning bosh qahramoni Farhod obraziga taalluqlidir. Har bir obraz o‘z individual jihatlar bilan,

dunyoqarashi, maqsadi, kishilarga munosabati, xulq – atvori va tashqi qiyofasi bilan to‘la namoyon bo‘ladi.

Navoiy yaratgan obrazlar ichki ruhiy kechinmalari bilan ham kitobxonning ko‘z o‘ngida mukammal gavdalanadi. Bunga, xususan, ko‘zguda Shirinni ko‘rgan Farhodning holati, Shirinning Farhodga yozgan dard – alamli maktubi va boshqalar yorqin misol bo‘la oladi. Kichik bir epizod keltiraylik. Mehinbonu mehnat mo‘jizalari ko‘rsatgan Farhodning boshidan duru la‘l sochdiradi. Biroq Shirin ko‘rinmagani uchun bular Farhodga tatimaydi, aksincha, duru la‘l uning boshiga yog‘dirilgan toshdek tuyuladi.²³

Farhod shahzoda bo‘lsa-da, mashhur usta Qorandan toshyo‘narlik, Moniydan naqqoshlik san’atlarini mukammal o‘rganib, ustozlarini hayratda qoldiradi. Hoqon o‘g‘liga xazinasini ko‘rsatgani, “Oinai Iskandariy” sirlarini bilish uchun Yunon tomon safari, undagi ajoyib-g‘aroyib sarguzashtlari nihoyatda jozibali va go‘zal tasvirlangan. Farhod Arman dashtida kanal qazayotganlar oldiga keladi. Ularga rahmi kelib,

Hunarni asrabon netgumdur oxir,

Olib tuproqqamu ketgumdur oxir, — deb hunarini, mo‘zijakor teshasini ishga solib kanal qazadi. Keyingi voqealar Farhodning Arman o‘lkasidagi faoliyati – kanal — “Ayn ul-hayot”, hovuz — “Bahr un najot” va qasr qurish, Xusravga qarshi kurash, oxirida esa vafoti bilan bog‘liqdir. Bunda Farhod quruvchi, naqqosh, toshyo‘nar va pahlavongina emas, balki Shirinning haqiqiy oshiqi, uning uchun o‘zini ham qurbon qilishga tayyor inson sifatida gavdalanadi. Shuning uchun Alisher Navoiy dostonini yozayotganida ham ana shu masalaga asosiy diqqatni qaratib yozadi:

Meni mahzung‘akim, ishq etti bedod,

Solib g‘am tog‘ida andoqki Farhod.

Munosibdur agar tortib navoni,

Desam Farhodi mahzun dostoni.

²³ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”. 1976, 455-б.

Yozib jon mushafidin ikki oyat,
Debon Farhodu Shirindin hikoyat.

Dostonda ana shu ikki timsol o‘zining jozibadorligi bilan, samimiyligi, haqiqiyligi, buyuk insonga xos fazilatlari bilan kishini maftun etadi.

Navoiygacha yaratilgan dostonlarning birortasida ham Farhod bilan Shirin o‘rtasidagi muhabbat sarguzashti Navoiyda bo‘lganidek kengligi, murakkab sarguzasht tarzida tasvirlangan emas. Shoir tomonidan “porloq yulduz”, “toblanuvchi gavhar”, “alangali chaqmoq” va nihoyat, “insoniylik tojining bezagi” deb ta’rif etilgan ishq dostonida Farhod bilan Shirinni el – yurt manfaatlari yo‘lidagi kurashlarga ilhomlantiradi. “Ikki jonibdin xulqi karim”, “adab va tavozu muqobalasida izzat va ta’zim” bu qahramonlarning o‘limigacha qat’iy amal qilgan shiorlari bo‘lib qoladi.

“Farhod va Shirin”da an’anaviy qissalarda uchramaydigan, jafokash Farhodning “iffat saroyi”ning shohi Shiringa muhabbati va bu yo‘lidagi uning mardonavor kurashini keng ko‘lamda tasvirlash maqsadida qissa to‘qimasiga Alisher Navoiy tomonidan olib kirilgan yangi mavzular katta silsilani tashkil etadi.²⁴

Navoiy Farhodning mehnatning va ijodkorlikda erishilgan muvaffaqiyatlarning asosiy boisi uning ilmi, aqli va irodasi deb hisoblaydi. Farhod aql va tafakkur kuchiga baho berar ekan:

Dedi: har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.
Ulum ichra manga to bo‘ldi madxal,
Topilmas mushkule men qilmagan hal, - deydi.

Adabiyotda xalq dahosi yaratgan qahramonlar orasida Farhod obrazi Navoiyni butun ijodi davomida to‘lqinlantirib keldi. “Farhod va Shirin” yaratilgan davrga qadar ham Navoiy o‘zining o‘nlab g‘azallarida Farhod nomini alohida mehr – muhabbat bilan tilga oladi. Adibning “Mufradot” asarida Farhod nomiga

²⁴ Ўзбек адабиёти тарихи. –Т. 1978. 243-б.

muammo janrida yozilgan maxsus bir she'r mavjud. Doston muqaddimasidagi bayonlardan anglashilishicha, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonini yozishdan oldin Nizomiy, Xusrav Dehlaviy asarlari bilan bir qatorda mavzu tarixiga oid bo'lgan barcha manbalarni sinchiklab ko'zdan kechirib chiqqan. Ulug' shoir izlanishlar jarayonida "bu gulshan sahnida gul ko'p, chaman ko'p" degan fikrga keladi. Shu "chaman" va uning "gullari" o'rtasida Navoiyni:

Qalam bargi guli nasringga surmak

ya'ni:

Raqam Farhod va Shiringa surmak

fikri band qiladi. Shu niyat paydo bo'lgandan boshlab shoirga Farhod obrazi butun to'laligi bilan yaqinlashib kela boshlaydi. Navoiyni asarni tezroq yozish va tugallash shavqi chulg'ab oladi:

Magarkim bu tamanno bo'ldi paydo,

Ki shavqi ayladi ko'nglimni shaydo.

Alisher Navoiyning Farhod obraziga bo'lgan bu qadar mayl – rag'bat shoirning gumanistik qarashlari bilan asoslanadi.²⁵

Professor A.Hayitmetov: "Navoiy Farhod obrazi ustida ishlar ekan, o'z idealiga real hayotda har qadamda uchrab turuvchi kishi obrazini emas, balki yetishish, hayotda uchratish qiyin bo'lgan orzudagi, fantaziyadagi ideal kishi obrazini yaratishni maqsad qilib qo'ygan..." – deb yozadi. Buni Farhodning tug'ilishidanoq uning qalbida ishq dardi joylashganini, ko'zida muhabbat ashki, damida oh dudi, jamolida "vafo to'g'rosi" borligini tasvirlashidanoq payqash mumkin.²⁶

Buyuk Navoiyning xizmatlari shundaki, dostonni yaratishda o'z idealini faqat Farhod siymosidagina emas, ayol zotining barcha go'zalliklarini, jasoratini, pok sevgisini o'zida mujassamlashtirgan Shirin obrazini hayotiy, jitimoiy, ma'naviy timsolini yaratadi. Alisher Navoiy tasvirida Shirin Mehinbonu tarbiyasidagi malika. U har jihatdan: zohiriy, botiniy, ma'naviy va ma'rifiy

²⁵ Бадриев Ф., Худойбердиев А. Алишер Навоийнинг "Фарход ва Ширин" дostonи хакида // Til va adabiyot ta'limi. 2011, 8-сон, 58-б.

²⁶ Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарход қиссаси. –Т.: "Фан". 1985, 36-37-б.

jihatdan ham go‘zal va beqiyos. Shuning uchun shoir Shirin siymosi – portretini shunday bir mahorat bilan chizadiki, uni o‘qigan kishining ko‘zi o‘ngida bu timsol butun borligi bilan namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari uning ma‘naviy – ma‘rifiy saviyasi ham ana shunday go‘zal va yuksak darajada. Shuning uchun uning atrofidagi o‘n qiz — Dilorom, Dilor, Diloso, Gulandom, Sumanbu, Sumanso, Parichehr, Parivash va Paripaykarlar ham Shiringa munosib bo‘lib, biri she‘riyat, biri musiqa, biri mantiq, biri hay‘at, biri tarix, biri hisob, biri muammodonlikda tengi yo‘q foziladirlar:

Bu fanlada bular bir – biridin ahsan,
Yuz ul fanliq aro har qaysi yak fan.

Bunda Alisher Navoiy Mehinbonu saroyidagi ajoyib bir ijodkorlik va bilimdonlik muhitini tasvirlaydi. Buning sababini esa Mehinbonuning o‘zida ko‘radi:

Mehinbonu ki donishparvar erdi,
Bilik ahlig‘a shohi sarvar erdi.

“Farhod va Shirin”dagi bu tasvir Shirin kabi komil insonlarni yetishtiruvchikomil sharoitni ham nazarda tutadi. Shunday bo‘lganda faqat erkaklargina emas, balki ayollar ham o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini har tomonlama yuzaga chiqara oladilar. Bu esa Alisher Navoiyning orzusi va asosiy maqsadi hamdir. Shuning uchun Alisher Navoiy tasviridagi Shirin o‘z taqdirini o‘zi hal qiladigan erkin shaxs. Bu holat quyidagi lavhada yaqqol ko‘zga tashlanadi: Shirinning dovrug‘ini eshitgan Xusrav unga sovchi yuboradi. Bu haqida Shiringa aytganlarida, u shunday javob beradi:

Manga ne yoru ne oshiq havasdur,
Agar men odam o‘lsam ushbu basdur.
Agar Bonu iloji bilsa, qilsun,
O‘zumni o‘ltururmen, yo‘qsa bilsun.²⁷

Umumta’lim maktablarida asarni o‘qitishda, asardagi yetakchi qahramonlar xarakterini ochishda o‘qituvchi turli savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilishi

²⁷ Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. I жилд. – Т.: “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси” нашриёти. 2002, 160-161- б.

mumkin. Masalan, asardagi yetakchi qahramonlardan ikkitasining obrazlari uchun materiallar to‘plang. Ularni quyidagi jadvalga moslashtiring:

Portret tasviri	Eng muhim tasvir vositalari	Qahramonlarning ichki kechinmalari tasviri		

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonining obrazlar tizimi tahlili uchun quyidagi materiallarni tayyolang:

1. Asardagi eng muhim portret tasvirlarini kartochkalarga oling.
2. Ulardan dars jarayonida foydalanish yo‘llari haqida gapirib bering.
3. Qahramonlarning bir – birlariga nisbatan bildirgan fikr – mulohazalarini o‘rganing. Bunda ularning qanday xislatlari namoyon bo‘ladi.
4. Dostondagi diolog va monologlarning ayrim obrazlar o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berishdagi o‘rni va ahamiyatini izohlab bering.
5. “Farhod obraziga tavsif” mavzusi uchun inshoning qisqa va kengaytirilgan rejalarini tuzing.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Adabiyot dasturida quyidagi ko‘rsatmalar berilgan: “Farhod va Shirin” dostonining “Xamsa”da tutgan o‘rni. Farhod va Shirin obrazlarining tahlili va talqini. Ular yuksak insoniy fazilatlarning badiiy mujassami sifatida Farhoddagi mardlik, jasorat, oqillik, sevgida sadoqat va vafodorlik xislatlarining aks etishi. Shirin go‘zal va oqila malika timsoli sifatida. Dostonning badiiy xususiyatlari”.

Ushbu talablarni bajarish uchun, xususan, Farhod va Shirin obrazlarining to‘liq o‘zlashtirilishi uchun qanday topshiriqlar bergan ma’qulroq edi. Bu haqida har bir o‘qituvchi o‘z mahorati bilan javob beradi. Farhod obraziga tavsif berish uchun uning portreti tasvirlangan o‘rinlar ham yordam beradi. Doston matnidan shunday o‘rinlarni belgilangki, har bir tasvirning dostonidagi badiiy – estetik

vazifalarini aniqlasin. Shirin tasvirida adib ko‘plab tasvir vositalaridan foydalangan. Ularni aniqlab, guuhlashtirish va vazifalarini izohlash ham katta natijalar berdi.

Alisher Navoiy Farhodni barcha go‘zal insoniy fazilatlar bilan bezab kitobxonga taqdim etgan. Poklik insonning komilligini belgilaydigan asosiy sifat deb hisoblagan adib Farhodni quyidagicha ta’riflaydi:

Demonkim ko‘ngli pok – u, ham ko‘zi pok,
Tili pok – u, so‘zi pok – u, o‘zi pok,
Muningdek diynati pokiza loyiq,
Duosin aytibon poki xaloyiq.

Badiiy adabiyot insonning ruhiy, ma’naviy dunyosini boyitishi, ezgulikka chorlashi, ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Zero, Alisher Navoiy o‘z orzu – istaklari hamda ideallarini Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Iskandar, Axiy singari qahramonlariga singdirgani bejiz emas. “Farhod va Shirin” dostonining syujeti, kompozitsion qurilishi, obrazlar qiyofasi, tasvir vositalaridagi xalq og‘zaki ijodiyoti izlari Navoiyning xalqning bu bebaho xazinasiga katta boylik sifatida qaraganligini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy ishqiy sarguzasht qissalarning an’anasi doirasida ijtimoiy – siyosiy masalalar borasida ham keng ko‘lamda bahs yuritish imkoniyatini kashf etadi. Adib shu maqsadda Farhod obrazining tarixini yaratishni maqsad qilib qo‘yadi va dostonida hamma diqqatini Farhodning tug‘ilishidan boshlab uning murakkab sarguzashtlarini tasvirlashga qaratadi.

XULOSA

“Farhod va Shirin” Alisher Navoiyning epik poeziya sohasidagi alohida katta muvaffaqiyatidir. O‘zbek, fors – tojik, ozarbayjon adabiyotlarida ishqiy sarguzasht qissalar uzoq tarixga ega bo‘lib, ishqiy mojarolar bilan to‘lib – toshgan bunday manzumalar asosida muayyan g‘oyaviy niyatni ifodalaydigan asarlar yaratish katta mahorat sanalgan.

Navoiy o‘zining doston ustidagi ishida epik poeziya an‘analari ichiga chuqur kirib boradi, o‘rni bilan ularga tanqidiy munosabatda bo‘ladi. “Farhod va Shirin” asosiy e‘tibori bilan ishqiy – romantik dostonchilik an‘analari asosida yaratilgan bo‘lsada, shoir bu doirada cheklanib qolgan emas. O‘quvchi dostonida mifologik lavhalar (Farhodning Oinai iskandariy sirlarini bilish uchun Yunonga otlanib, og‘zidan o‘t chiqarib turuvchi ajdaho va “Avesto”da zulmat ramzi sifatida gavdalangan Ahramanga qarshi kurashi)ni ko‘radi. “Farhod va Shirin” dostonining syujeti, kompozitsion qurilishi, obrazlar qiyofasi, tasvir vositalaridagi xalq og‘zaki ijodiyoti izlari Navoiyning xalqning bu bebaho xazinasiga katta boylik sifatida qaraganligini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy ishqiy sarguzasht qissalarning an‘anasi doirasida ijtimoiy – siyosiy masalalar borasida ham keng ko‘lamda bahs yuritish imkoniyatini kashf etadi. Adib shu maqsadda Farhod obrazining tarixini yaratishni maqsad qilib qo‘yadi va dostonida hamma diqqatini Farhodning tug‘ilishidan boshlab uning murakkab sarguzashtlarini tasvirlashga qaratadi. Shu tarzda asarda keltirilgan har bir masalaning qo‘yilishi va izchil hal etilishiga zamin yaratadi.

Alisher Navoiy faqat so‘z san‘atining buyuk namoyondasi, olamshumul ahamiyatga molik bo‘lgan ijodkorgina emas, ta‘lim – tarbiya sohasida jiddiy fikrlarni bildirgan, bu sohada nazariy fikrlarni aytish bilan cheklanmasdan, katta hajmdagi amaliy faoliyat bilan shug‘ullangan benazir mutafakkir hamdir.

“Mahbub ul-qulub” asarida bilim olib mustaqil mushohada yurita olmaydigan insonni “ustiga kitob ortilgan eshak”ka qiyoslaydi va “nodon” deb ataydi. Shuningdek, ulug‘ shoir asarida o‘quvchini chiroyli yozuvni, yozma nutq malakasini egallashga undaydi. U yod olish usulining imkoniyat va afzalliklarini targ‘ib qildi. Jumladan, Farhod haqida gapirib:

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.
...O'qub o'tmak, uqub o'tmak shiori,
Qolib yodida sahfa – sahfa bori, — degan misralarni bitadi.

Bugungi yoshlarimiz qiyofasida ham Navoiy idealidagi Farhodga xos xislatlar mavjud desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, yoshlarimizning bunyodkorlik ishlari, asriy tog'larni zabt etishi, yer qa'ridan oltin qazib olishi, osmono'par imoratlarni qurishi, mamlakatni bog'u bo'stonga aylantirishi, ilm – fan bobida dunyo olimlarini hayratda qoldirishi Navoiy orzularining hayotiy va real ekanligidan dalolatdir. Navoiy nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotidagi eng yorqin siymolardan biridir. Bu buyuk bobokalonimiz qoldirgan ulkan merosda olam va odamga bog'liq bo'lgan hodisalar favqulodda teran nigoh bilan tahlil etilgan. Ularda inson mohiyati, uning ijtimoiy vazifasi, burch va mas'uliyatlari, imkoniyat va ojizliklari yuksak badiiy ohanglarda tasvirlangan. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri — bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha`nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir".

Alisher Navoiy ijodining qimmatini adabiyotshunos olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Shuning uchun adabiyot darslarida mavzuni bayon etish, asar mazmuni haqida gapirish, qahramonlar sarguzashti, kurashini hikoya qilish, obrazlarni ijobiy yoki salbiyga ajratishning o'zi yetarli emas. Aslida yozuvchining (ijodkorning) ichki olami, dunyoni talqin etishi, hayot voqealarini bayon etish san'ati, jamiyatga munosabati, eng muhimi, san'at vositasida kitobxonni ezgulikka, yuksaklikka yetaklashi, poetik mahorati, ijodiy metodi, falsafiy – estetik qarashlarini topa olish, uni o'rganish badiiy asarda mavjud bo'lgan yangi olam,

yangi dunyo kishisining xarakterini topa olish va uni kitobxonga yetkaza olish san'atiga ega bo'lgan o'qituvchigina o'quvchiga madaniy, ma'naviy oziq bera oladi va uni ijodiy fikrlashga undaydi. Adabiyot o'qituvchisi Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai Sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarini tahlil qilar ekan, uni bugungi kun bilan bog'lashi zarur. Bugun Navoiy orzu qilgan qahramonlar mustaqillik davrida qurilgan koshonalarda hayot kechirmoqdalar, yuksak maqsadlar sari intilmoqdalar. Demak, Navoiyni anglash u yaratgan asarlari mazmunini o'rganishgina emas, balki bugungi kun qahramonlarining vatanparvarligi, mehnati, bilimi, iste'dodi bilan yuzaga kelgan mo'jizalarni anglash hamdir.

ILOVA.

(Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishga oid lug‘at)

A

Asror – sirlar

Ashk – ko‘z yoshi

Avroq – varaqlar

Abjad – qadimgi arab alifbosida birdan o‘ngacha bo‘lgan birlik

Ayn ul-hayot – hayot bulog‘i, hayot suvi

Anfos – nafaslar

Atfol – bolalar

Ar – “agar” so‘zining qisqartirilgan shakli

B

Beandoza – cheksiz, chegarasiz

Baloshor – balo keltiruvchi

Bebok – beparvo

Bud – borlik, mavjudlik

Burna – burun, ilgari

Bodi sabo – tong shamoli

Bovar qilmoq – ishonmoq

Bemadoro – murossasiz, kelishmasdan

Burqa – yuzga tutiladigan parda, niqob

D

Dam – nafas

Donish – bilish, bilim

Dast – qo‘l

F

Furqat – firoq, ayriliq, yordan yiroqlik

H

Huvaydo – ayon, ravshan

Holi – ravish

Hayvon – tiriklik, hayot

Hirmon – mahrumlik, bebahralik

Hijob – parda

I

Inkor qilmoq – qaytmoq

Istigʻfor qilmoq – tavba qilmoq

J

Jon ahli – mansab ahli

K

Kishvar – mamlakat, viloyat, yurt

Kinakash – kek saqllovchi, dushmanlik qiluvchi, oʻch oluvchi

L

Lavh – yoyiq narsa, taxta; yozuv taxtasi

Laʼl – qip-qizil tosh. Bu yerda yorning labini anglatgan

M

Mehri olamoroy – olamni yorituvchi quyosh

Malak – farishta

Murur – oʻtish, yurish

Mukarrar – takror

Mahroʻ – oy yuzli

Mustami boʻmoq – quloq solmoq, eshitmoq

Mujnuni gumrah – yoʻlini yoritgan jinni

Multamas – iltimos

Momugʻ – chigitsiz

Mahjur – hajrda qolgan, ayriliqda qolgan

Mushavvash – tashvishli, koʻngli parishon

N

Naʼlayn – bir juft kovush

Nazhat – koʻngil ochish, huzur qilish

O

Otasholud – yoniq, dardli, otashin

Otashporo – olov parchasi

P

Padidor – paydo bo‘lgan, ko‘ringan

Pesha – kasb, hunar

Q

Qarn – 30 yilni bildiradigan yil hisobi. Ba‘zan “asr” ma’nosida ham keladi

R

Rud – ariq, soy

S

Siroyat – ta’sir, ichiga o‘tish, yuqish

Siloh – qurol-yarog‘

So‘zlig‘ so‘z – yoniq so‘z, so‘zli yonish

Sipehri ismat – poklik osmoni

Savdo ahli – ishq ahli

Sud – foyda

T

Tug‘di – tug‘ildi

Ta’viz – tumor, duo yozilgan varaqa

Tug‘ro – davlat ramzi (gerb), nishona

Tahqiq – biror narsaning haqiqatini izlash, haqiqat qilish

Tafakkus aylamak – tekshirmoq, teran o‘rganmoq

Tul – uzun, cho‘zilgan

Taabliq – qiyinchilik, mashaqqat

Tuhmat – overagarchilik, tashvish

U

Ulum – ilmlar

V

Vard – atirgul

X

Xunbor – qon yig‘lovchi

Xoro – qattiq tosh

Xusron – zarar, ziyon

Z

Zamir – ko‘ngil

Y

Yangi oy – Farhodning tug‘ilishi qorong‘u kechada yangi oyning paydo bo‘lishiga qiyoslangan

Yig‘och – taxminan 1200 metr ga yaqin masofa

Yolin – yolqin, alanga

Yovar – yordamchi, madadkor

G‘

G‘amnok – g‘amgin

G‘izo – ovqat, oziq, yegulik

SH

Shabiston – tungi yotoq, xona

Shamoyil – ko‘rinish, tuzilish

Sheva – odat, tarz

Shirkatandesh – sheriklik qiluvchi

CH

Charxfarso – ko‘kka ulangan, juda yuksak

Adabiyot darslarida o'rganish uchun dasturga kiritilgan bir qator epik asarlarning hajman yirik ekanligi, ularni ko'pincha lirik asarlar singari bir zarb bilan o'qib chiqib bo'lmashligi, binobarin, bir o'quv soati ichida ham matn bilan tanishish ham tahlil qilish imkonsizdir.

Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida epik asar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olishi va mantiqiy xulosaga kela bilish malakasini shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi.

Navoiy asarlarini, umuman mumtoz epik asarlarni tahlil qilishning qiyinchiliklari oz emas. Ayniqsa, ulardagi eskirgan va fors, arabcha so'zlarning ko'pligi, o'sha davr badiiy talablari, shuningdek, bevosita adib uslubi bilan bog'liq holatlar shular jumlasidandir.

Buning ustiga yirik epik asarlarni o'rganish uchun talab etiladigan vaqt ham nihoyatda chegaralangan. Qisqa bir vaqt ichida o'qituvchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlarni qidirishni taqozo etadi. Bugunning o'quvchisiga buunning usuli bilan ta'lim berilgandagina samaraga erishish mumkin.

Bugungi kunda badiiy adabiyotni badiiy-estetik asnoda zamonaviy usullar asosida o'rganish kundan-kunga dolzarblashib bormoqda. Chunki buungi adabiyot darslari o'quvchini tayyor iste'molchi emas, balki ijodiy fikrlovchi, mustaqil qarash hamda xulosalarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan. Prezidentimiz "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" deb nomlangan nutqlarida: "... adabiyot masalasi ma'naviyat masalasidir",- degan fikrni o'rta tashlab adabiyotning jamiyat ma'naviyatida tutgan o'rniga ulkan baho berishi adabiyot o'qitishning samarali usullarini tadqiq etishga ehtiyoj yanada kuchayganidan dalolatdir. Yurtboshimizning bu kabi dastur xarakteridagi fikrlari, umuman adabiyot o'qitishning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, qolaversa, milliy madaniyatimizga bag'oyat kuchli ta'sir ko'rsatgan, mumtoz adabiyotimizning yangi bosqichga olib chiqqan hazrat Alisher Navoiyning epik asarlarini noan'anaviy tarzda o'rganishga ham oiddir.

Alisher Navoiyning epik asarlarini o'qitishda o'quvchilarning faolligini ta'minlashga qaratilgan interfaol usullardan bir qancha maktab amaliyotida sinab

ko‘rildi va ijobiy natijaga erishildi. Chunonchi, buyuk shoirning 9-sinfda o‘rganilishi mo‘ljallangan “Farhod va Shirin” dostoni matni ustida ishlash” mavzusini o‘tishda biz tajriba-sinov ishlarida qo‘llagan quyidagi dars usulini qo‘llash mumkin.

Mavzu: “Farhod va Shirin” dostoni matni ustida ishlash.

Maqsad: O‘quvchilar doston matnini o‘rganish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Kutilayotgan natija:

- yakka holda dostonni ifodali o‘qib, o‘qiganlarini tahlil qilish;
- lug‘at, darslik va doston matni ifodalangan boshqa manbalar bilan ishlash;
- dostondan audio tasmaga yozilgan parchalarni tinglab idrok etish;
- dostondan parcha yod olish.

Jihozlar: 9-sinf darsligi, dostondan olingan parchalar ifodalangan tarqatma materiallar (6 nomda: 1-tarqatma- “Toj taklifi”, 2-tarqatma- “Chiniy oyna voqeasi”, 3-tarqatma- “Mehnat mahsuli”, 4-tarqatma- “Farhod g‘alabasi”, 5-tarqatma- “Uchrashuv”, 6-tarqatma- “Makr tuzog‘i”), qo‘shimcha adabiyotlar: “Xamsa” asari, turli jurnallardagi mavzuga oid ilmiy-metodik maqolalar.

Darsning borishi:

O‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadi va dostondagi 5 timsolga oid sifatlar yozilgan tarqatmalarni olishadi.

Farhod timsoliga oid 5 ta tarqatma:

- 1- tarqatma. U – kamtar inson.
- 2- tarqatma. U – komil inson.
- 3- tarqatma. U – mard inson.
- 4- tarqatma. U – ijodkor shogird.
- 5- tarqatma. U – mehnatsevar inson.

Shirin timsoliga oid 5 ta tarqatma:

- 1- tarqatma. U – juda go‘zal.
- 2- tarqatma. U – sadoqatli qiz.
- 3- tarqatma. U – vafodor.
- 4- tarqatma. U- insonparvar.

5- tarqatma. U – mustahkam irodali.

Xusrav timsoliga oid 5 ta tarqatma:

1- tarqatma. U – soxta oshiq.

2- tarqatma. U – zolim.

3- tarqatma. U – johil podsho.

4- tarqatma. U – xudbin.

5- tarqatma. U – hiylakor.

Mehinbonu timsoliga 5 ta tarqatma:

1- tarqatma. U – adolatli hukmdor.

2- tarqatma. U – ma'tifatparvar ayol.

3- tarqatma. U – tadbirkor.

4- tarqatma. U – ideal hukmdor.

5- tarqatma. U – ezgu maqsadli.

Sheruya timsoliga oid 5 ta tarqatma:

1- tarqatma. U – insofsiz.

2- tarqatma. U – razil.

3- tarqatma. U – shuhratparast.

4- tarqatma. U – axloqan buzuq.

5- tarqatma. U – padarkush.

Ushbu tarqatmalar aralash holda sinf o'quvchilariga tarqatiladi. O'quvchilar qo'llaridagi tarqatmada ifodalangan timsolga oid sifatlarni o'qib, guruhlarga birlashadi.

2- bosqich. O'quvchilar o'z guruhlariga nom berishadi. Tanlagan nomini izohlaydilar. Bu jarayon juda qisqa vaqt davom etishi kerak. Masalan, Farhod timsoliga- "Tadbirkor", Shirin timsoliga- "Sadoqat", Mehinbonu timsoliga- "Ma'rifat", Xusrav timsoliga- "Jaholat", Sheruya timsoliga- "Qasoskor" guruhi deb nom berishlari mumkin.

3- bosqich. Guruhlarga dostonidan she'riy parchalar beriladi.

Topshiriq: Dostonidan olingan parchalarni o'qing va tahlil qiling.

Tushunchalaringizni daftaringizga yozing. Bunda lug'atdan foydalaning.

4- bosqich. Har bir guruhga o‘zlari tahlil qilgan parchalarning nasriy bayoni berilgan tarqatma materialini tarqatiladi va quyidagi topshiriq beriladi:

1. Matnga sarlavha tanlang.

2. Tushunmagan so‘zlaringizni belgilang va shu so‘zlar ma’nosini o‘rganing.

5- bosqich. Magnitofonda guruhlariga berilgan parchalardan biri eshittiriladi.

6- bosqich. O‘qituvchi ushbu parcha ustida qaysi guruh ishlaganini so‘raydi va qisqacha mazmunini aytib berishni taklif qiladi. Bunda vaqt taqchilligi bo‘lsa bitta guruh ishlagan parchani eshittirish bilan cheklanish kifoya.

7- bosqich. O‘qituvchi guruhda ishlash davomidagi faolligi, o‘rtog‘iga yordam berishi, savollarga javoblariga qarab, kamida 7 nafar o‘quvchini baholashi va bu bahoni izohlashi kerak. So‘ngra uyga vazifa beriladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan amaliyotda, xususan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni matni ustida ishlash” mavzusini o‘qitishda qo‘llanilgan dars turi o‘quvchilarning yakka va o‘zaro faoliyati asosida amalga oshirilib, samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati.

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. —Т.: Маънавият, 2008.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. —Т.: Шарқ, 1997.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. —Т.: Ўзбекистон, 1999.
4. Каримов И.А. Адабиётга эътибор — маънавиятга, келажакка эътибор. —Т.: Ўзбекистон, 2009.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Адабий мерос (Хужжат ва тадқиқотлар). — Т.: Фан, 1968.
2. Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди (Альбом). — Т. 2010.
3. Бадриев Ф. Синфдан ташқари ишлар комил инсон тарбияси воситаси сифатида. // Адабий таълим ва ёшлар тарбияси (илмий-амалий конференция материаллари 2011 йил 28- октябрь). — Т. 2011.
4. Бадриев Ф., Худойбердиев А. Бадий адабиётни ўқитиш мезони. // Бадий матн таҳлили ва талқини муаммолари (Н.М.Маллаев таваллудининг 90 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари). — Т. 2012.
5. Badriyev F., Xudoyberdiyev A. Adabiyot o'qitish metodikasi. Sam. 2003.
6. Бадриев Ф., Худойбердиев А. Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достони ҳақида // Til va adabiyot ta'limi. 2011, 8-son.
7. Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. —Т.: O'qituvchi, 1967.
8. Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарҳод қиссаси. — Т.: Фан, 1985.
9. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. —Т.: Ўқитувчи, 1976.
10. Орифий Ш. Мактабда лиро-эпик асарларни ўрганиш. . — Т.: Ўқитувчи, 1981.
11. Qayumov A. Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). —Т.: Kamalak, 1991.
12. Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. Adabiyot.. O'rta umumta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. —Т.: O'qituvchi, 2004.

- 13.Сарибоева М.“Фарҳод ва Ширин” достони матни устида ишлаш.//
Адабий таълим ва ёшлар тарбияси (Республика миқёсида ўтказилган
илмий-назарий анжуман материаллари асосидаги мақолалар тўплами) 2-
китоб. – Т .2010.
- 14.Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси (Амалий ва лаборатория
машғулоти) – Т. 2012.
- 15.То‘хлиев В. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Т.: Yangi asr avlodi,2010.
- 16.Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи.–Т. 1993.
- 17.Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар.I жилд. – Т . 2002.
- 18.Ҳо‘лдошев Қ. Adabiy saboqlar. – Т. 2004
- 19.Ҳо‘лдошев Қ., Қодиоров В., Ҳо‘лдошбеков Ж. Adabiyot. O‘rta umumta’lim
maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –Т.: О‘қитувчи, 2010.
- 20.Зуннунов А.,Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи,
1985.
21. Зуннунов А. Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерклар. – Т.:
Ўқитувчи, 1980.
- 22.Зуннунов А. Педагогика тарихи. – Т.: Шарқ. 2004.
23. Зуннунов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1991.
- 24.Ўзбек адабиёти тарихи. II том. –Т.1978
- 25.Ғаниева С. Алишер Навоийнинг прозаик асарлари. – Т.:
Ўзбекистон,1981.

III. Lug‘atlar:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.Тўрт томли.I т. – Т.:
Фан, 1983.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.Тўрт томли.III т. –
Т.: Фан, 1984.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.Тўрт томли.IV т. –
Т.: Фан, 1985.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.Тўрт томли.II т. – Т.:
Фан, 1983.

